

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**Qo‘lyozma xuquqida
UDK**

Asamutdinova Xusnora Mirqodirovna

**MAVZU: “XITOIDA INDUSTRIALLASH TIRISH JARAYONINI
CHUQURLASH TIRISH YO‘NALISHLARI”**

**5A341001 – Mamlakatlar mintaqashunosligi (iqtisodiyot va
mamlakatshunoslik) – (Osiyo Tinch Okeani mintaqasi)**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar: G‘ulomova G.P.

TOSHKENT - 2012

Magistrlik dissertatsiyasi himoyaga tavsiya etiladi:

Magistratura bo'limi boshlig'i

Xabibullaev A.

MUNDARIJA

Kirish.....	4-8
1-Bob. Industriallashtirish jarayonining nazariy asoslari.....	9-23
1.1 Mamlakatni industriallashtirish konsepsiyalari.....	9-14
1.2. Sanoatlashtirish siyosatining mohiyati, uning maqsad va vazifalari.....	14-23
2-Bob. Xitoyda industriallashtirish jarayonining amalga oshirish	
bosqichlari , yo'nalishlari va xususiyatlari.....	24-62
2.1. XXRda industriallashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari...	24-40
2.2. XXR da sanoat islohotlarini amalga oshirish va undagi zamonaviy tarkibiy o'zgarishlar.....	40-62
3-Bob. Xitoyda industriallashtirish jarayonini takomillashtirish	
Istiqbollari	63-77
3.1. Xitoy industriallashtirish jarayoniga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'siri.....	63-71
3.2. Xitoy industriallashtirish jarayoni tajribasidan O'zbekiston uchun foydalanish imkoniyatlari.....	71-77
Xulosa.....	78-79
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	80-85

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jahon xo‘jaligi taraqqiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega mamlakatlardan biri Xitoy hisoblanadi. Xitoy XX asrning ikkinchi yarmidagi iqtisodiy muvaffaqiyatlari bilan jahon xo‘jaligining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Xitoy erishgan iqtisodiy yutuqlar shubhasiz o‘ttiz yildan ortiqroq vaqt davomida olib borilayotgan iqtisodiy islohatlar natijasidir. Mana shu muvaffaqiyatlar natijasi o‘laroq Xitoy bugungi kunda jahon xo‘jaligining ajralmas bir bo‘lagi sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda, xalqaro mehnat taqsimotida va jahon iqtisodiyotida o‘z o‘rniga ega.

Xitoyda 1970 yillar oxirida boshlangan iqtisodiy islohotlar davrida, u o‘zining kuch-qudrati va iqtisodiy salohiyatini yanada oshirishda katta yutuqlarga erishdi. Mamlakat bir qator sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetishtirishda dunyoda yetakchi o‘rinlarni egallab kelmoqda. Xususan: ko‘mir qazib olish, sement ishlab chiqarish, tekstil sanoati mahsulotlari, televizor, muzlatgich, velosiped, shinalar ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligidagi: don mahsulotlari, paxta, guruch, soya, go‘sht va tuxum yetishtirish kiradi va mamlakat mazkur mahsulotlarni ishlab chiqarishda dunyoda 1-o‘rinlarni egallamoqda.

Xitoy yirik agrar-industrial mamlakat bo‘lgani bois, iqtisodiyot taraqqiyotining asosiy maqsadi dunyoda sanoat ishlab chiqarish darajasi bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallash hisoblanadi. Shu bilan birga iqtisodiy qoloqlikni bartaraf etish, yalpi ichki mahsulot miqdorining umumiy hajmi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdorini oshirish maqsadida iqtisodiy o‘sishning yuqori sur‘atlarni saqlab turishi lozim.

Xitoy dunyodagi yirik iqtisodiyotli mamlakatlardan biri bo‘lib, uning xududida dunyo aholisining qariyb 20% idan ortig‘i (2010 y.) istiqomat qiladi va u o‘zining yuqori iqtisodiy rivojlanish sur‘atlari bilan xarakterlanadi. 1978-2010

yillar mobaynida uning yalpi milliy mahsuloti 17,6 baravarga oshdi, va uning yillik o'sish sur'ati o'rtacha 9,5%ni tashkil etdi¹.

Shu bilan birga, hammasi bo'lib 16 xil mahsulotlarni ishlab chiqarishning absolyut hajmi bo'yicha Xitoy yirik ishlab chiqaruvchilar beshligi hamda o'nligiga kiradi. An'anaviy tarmoqlar bilan birgalikda, Xitoyda elektronika, kimyo va neft kimyosi, aviakosmik, avtomobilsozlik, yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarish (nanotexnologiya, biotexnologiya, gen injeneriyasi) va mashinasozlik sanoatlari ham yuqori sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Xitoy iqtisodiy islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri - uning o'z sanoatlashtirish siyosatini samarali olib borishi hisoblanadi.

Xitoy industriallashtirish jarayonining muvaffaqiyatli tajribasidan O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonida ijodiy foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda ham Xitoy singari iqtisodiyotni industriallashtirish, texnika va texnologiya jihatdan qayta qurorllantirish, modernizatsiyalash jarayonlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "... uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan navbatdagi muhim ustuvor yo'nalish – bu asosiy etakchi sohalarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikasiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsion siyosatini olib borishdan iborat"².

Yoqoridagilarni e'tiborga olgan holda, Xitoyning industriallashtirish bo'yicha boy tajribasini o'rganish lozim deb o'ylaymiz va aynan shu nuqtai nazardan, mazkur ilmiy ishning mavzusi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun benihoya dolzarbdir.

¹ Факты и цифры: КНР, за 2010 г.

² Каримов И.А. Асосий вазифамиз – ватанамиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т: Ўзбекистон, 2010. – 65 б.

Мавзунинг о'rganilganlik darajasi. Xitoy iqtisodiyotida sanoatlashtirish siyosatini amalga oshirish, ya'ni industrialashtirish uchun uning texnik bazasini yangilash (modernizatsiyalash) va ushbu sohani rivojlantirishda chet el investisiyalarini, xususan, yangi texnika va texnologiyalarni mamlakatga jalb qilish masalalari bilan ko'pgina xitoy iqtisodchi olimlari shug'ullanib kelishgan. Jumladan, ular qatoriga Xitoy iqtisodiy islohotlari bosh arxitektori Den Syaopinni, Go Kelsoni, Li Szinvenni, Xao Szyanxen, Li Szinven, Lu Yunsyen, Chjou Veydi, Chjao Xuashen, Su Fenlin Li Szin Ven,³ Lyu Goguan⁴, Li Ke,⁵ va boshqalarni kiritish mumkin.

Shu bilan birga, ular qatorida ushbu muammoni turli qirralarini o'z asarlarida yoritib kelayotgan Rossiya iqtisodchi-xitoyshunos olimlaridan A.V.Ostrovskiy,⁶ E.F. Avdokushin,⁷ Ye.P. Bajenov,⁸ M.V. Baranov,⁹ Ya.M.Berger¹⁰, M.L.Titorenko,¹¹ Muromseva Z.A.¹² va boshqalarni nomlarini atab o'tish lozimdir.

Undan tashqari, ushbu sohaning nazariy jihatlarini turlicha yondashuvlar orqali O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham o'zlarining bir qator ilmiy monografiya va maqolalarida yoritganlar. Ular jumlasiga: akademik S.K.Ziyodullaev, fan doktorlari va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arboblari K.N. Bedrinsev, B.A.Palmin, O.X.Xikmatov, K.I.Lapkin, N.I.Chumanova,

³ Ли Цзин Вэнь. Анализ и прогнозирование основных проблем экономики современного Китая // Прогнозирование развития КНР: экономика, информатика, внешняя политика и безопасность. /РАН ИДВ.-М., 2000, вып. 9., с.9-29.

⁴ Лю Гогун. Проблемы урегулирования экономической структуры Китая.// Проблемы ДВ,- 2001, № 6, с. 64-70.

⁵ Ли Ке Допустимые диспропорции и системная оптимизация региональной экономики Китая.//Проблемы теории и практики управления. 2002, № 1, с. 63-67.

⁶ Островский А.В. «Состояние и перспективы строительства экономики КНР», КНР: политика, экономика, культура, 2007г. Под ред.Титаренко М.Л., М., с. 77.,

⁷Е.Ф. Авдокушин. Международные экономические отношения, учебник, Юность, М., 2004 г. с.368.

⁸ Баженов Е.П. «Китай и внешний мир» М, 2000 г.

⁹ Баранов М. Специальные экономические зоны Китая, М.,2002

¹⁰ Бергер Я.М. Экономическая стратегия Китая.-М.: Магистр, 2009.- 574 с.

¹¹ Титоренко М.Л. «Стратегия Китая по превращению супер индустриальную страну » ,М., 2006 г.

¹² Муромцева З.А. Китайская Народная Республика: путь к индустриализации нового типа. М.: ИДВ РАН, 2009. 264 с.

R.M.Razakovlarni, iqtisod fanlar nomzodlari M.A.Ovcharova va N.M.Yusupovalarni kiritish mumkindir.

Magistrlik dissertatsiya ishining maqsadi Xitoy sanoatidagi zamonaviy tarkibiy o'zgarishlarni taxlil etish va uning asosida kerakli tavsiya va xulosalar ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalarni** hal qilish lozimdir:

- Sanoatlashtirish siyosati mohiyatini, uning maqsad va vazifalarini o'rganib chiqish;
- XXR da iqtisodiy islohotlarni boshlanishi va mamlakatda "To'rtlik modernizatsiyasi" dasturining qabul qilinishini taxlil etish;
- Xitoy sanoatidagi zamonaviy tarkibiy o'zgarishlarni taxlil qilish uchun Xitoyni JST ga a'zo bo'lgandan keyingi davrdagi sanoatdagi yuz bergan o'zgarishlarni sabab va oqibatlarini birma-bir qarab chiqish;
- Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Xitoy sanoati rivojlanishiga ta'sirini o'rganib chiqish;
- Xitoy sanoatining rivojlanish istiqbollari aniqlashga xarakat qilish va uning tajribasidan O'zbekiston sanoatini rivojlantirishda qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Ishning nazariy asoslari bo'lib Xitoy, AQSh, Germaniya, Rossiya va O'zbekiston iqtisodchi olimlarining ushbu soha bo'yicha ilmiy izlanishlari, Xitoy xukumatining sanoatni industriallashtirish va xalk xo'jaligini modernizatsiyalash bo'yicha qabul qilingan turli qonuniy va normativ aktlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida guruhlash, tizimli yondashuv, iqtisodiy va statistik taxlil, taqqoslash tahlili va boshqa usullardan foydalanildi. Tadqiqotning axborot manbai bo'lib, XXR ning turli statistik ma'lumotlari, jumladan: Chjungo tunszi nyanszyan; Chjungo gune szinszi tunszi szilyao; Chjungo tunszi chjayno axborotnomalari va O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiyot va statistika vazirligining ma'lumotlari xizmat qildi.

Ilmiy ishning yangiligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- turli uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish asosida Xitoyning sanoatlashtirish siyosati xususiyatlari o‘rganib chiqildi;
- XXRda sanoatlashtirish va modernizatsiyalash jarayonlarini amalga oshirishda unga to‘sqinlik qilayotgan sabablar o‘rganib chiqildi;
- Xitoy sanoatining rivojlanish bosqichlari va xususiyatlari taxlil qilinib, soha oldida yechimini kutayotgan muammolar aniqlandi;
- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Xitoy sanoatiga ta’siri o‘rganib chiqildi;
- Xitoy sanoatidagi zamonaviy tarkibiy o‘zgarishlar taxlil qilindi va uning ayrim jihatlaridan O‘zbekiston sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlari aniqlandi.

Ishning amaliy ahamiyati - Har bir rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyoti uchun Xitoy sanoatlashtirish siyosati xususiyati va undagi yengil va og‘ir sanoatning zamonaviy modernizatsiyalash usullari bizning iqtisodiyotimizda tajriba sifatida foydalanish imkonini beradi. Undan tashqari, ishdagi sanoatni rivojlantirish bo‘yicha qilingan ba’zi bir taxlillar va tavsiyalar shu soha mutaxassislari uchun kerakli ozuqa bo‘lishi mumkin. Mazkur ishdan iqtisodiy yo‘nalishdagi Oliy o‘quv yurtlarida o‘tkaziladigan maxsus kurslarda va Xitoy iqtisodiyoti fanini o‘qitishda qo‘llanma sifatida bevosita foydalanish mumkindir.

Ilmiy ishning ob’ekti – XXR xududlari, sanoat tarmoqlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti – Xitoy sanoatlashtirish siyosatining amalga oshirilishi, undagi industrialashtirish jarayoni hisoblanadi.

Dissertatsiya ishi tarkiban, kirish, uchta bob, oltita paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iboratdir.

1-Bob. Industriallashtirish jarayonining nazariy asoslari

1.1. Mamlakatni industriallashtirish konsepsiyalari

Davlat har qanday iqtisodiy siyosatining natijaviy maqsadi - bu uning iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash asosida aholining yashash darajasini sifat jihatdan oshirib borishdan iborat bo'lib, davlatning sanoatlashtirish siyosati ham shular jumlasiga kiradi. Har qanday iqtisodiy siyosat mamlakatning iqtisodiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qo'ymaydi.

XYII asrda paydo bo'lgan merkantilizm g'oyalaridan biri – bu “g'oliblarni tanlash” modeli bo'lib, unda yirik manufakturalar orasidan mamlakat sanoatining ilg'or sohalari bo'yicha eng muvaffaqiyatli korxonalar tanlab olinib, ularga davlat tomonidan kerakli yordamlar ko'rsatish ishlari amalga oshirish ko'zda tutilgan edi.

Ma'lumki, nisbiy ustunliklar nazariyasiga binoan, sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarida ushbu ustunliklarga ega bo'lgan davlatlarda ishlab chiqarish resurslari jamlanishi orqali ulardan foyda olinadi. Har bir davlat o'z sanoatlashtirish siyosatini amalga oshirar ekan, uning mamlakat iqtisodiyotiga o'zining real nisbiy ustunliklarini kuchaytirish orqali yordam beradi.

Sanoatlashtirish siyosatining jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ya'ni, uni amalga oshirishning ikki muhim yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

a. “g'oliblarni tanlab olish” (Picking winners) – bu mamlakat hukumatini fikri bo'yicha, ular rivojlanish uchun maksimal salohiyatga ega bo'lgan va ularga hukumatning yordami zarur bo'lgan sanoat ishlab chiqarish tarmoqlaridan yoki korxonalari orasidan ustuvorlarini tanlab olishdan (ularni subsidiyalash, ularga imtiyozli kreditlar berish va imtiyozli soliqlar belgilash);

b. ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanishni oshirish, ya'ni mehnat unumdorligini oshirish uchun; bozor islohotlarini amalga oshirish orqali resurslardan samarali foydalanish; infratuzilmani rivojlantirish uchun investisiyalarni kiritish va NIOKR ni qo'llab-quvvatlashga va kadrlarning malakasini oshirish uchun iqtisodiy sharoitlar yaratib berishdan iboratdir.

Bugungi kunda iqtisodchilar, qoidaga binoan, sanoatlashtirish siyosatining ikkinchi yo‘nalishini ustun qo‘ymoqdalar, chunki:

- birinchidan, ushbu “g‘oliblarni tanlab olish” siyosatini zamonaviy globalizatsiya sharoitlarida samarali amalga oshirishning mumkin emasligi;

- ikkinchidan, mazkur siyosat davlat tomonidan uzluksiz batafsil tahlil qilinishni va mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlaridagi va mamlakat barcha sanoat tarmoqlaridagi va alohida korxonalaridagi nisbiy ustunliklarini xatosiz baholashni talab qiladi. Bu esa, mamlakatlar iqtisodiyotini diversifikatsiyalash jarayonida ancha murakkab masalalarga aylanmoqda. Buning uchun zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda mavjud bo‘lmagan yuqori darajadagi bilimlar va muayyan miqdorda davlat apparati organlari lozimdir. Ma’lumki, iqtisodiy qarorlarning haddan tashqari markazlashgani – rejali iqtisodiyotning samarasiz ekanligini ko‘rsatib, unda bozor islohotlarini amalga oshirish zaruratini tug‘diradi.

- uchinchidan, “g‘oliblarni tanlab olish” siyosati davlat ommaviy investitsiyalarini amalga oshirish va markazlashgan holda kreditlar berish uchun ahamiyatli moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashni ko‘zlaydi. Bu esa, jamiyatning boshqa masalalariga, ya’ni “iqtisodiyotni erkinlashtirish” masalalariga qarama-qarshi qilib qo‘yadi.

“Millatni sanoatlashtirish bo‘yicha tarbiyalash” to‘g‘risida XIX asrning mashhur nemis iqtisodchisi F.List o‘z izlanishlarini olib borgan bo‘lib, uning fikricha, davlat o‘z mahalliy yosh sanoatini uning mahsuloti to raqobatbardosh bo‘lmaguncha qo‘llab-quvvatlashi lozimdir degan g‘oyalarni ilgari suradi.

Uning g‘oyalarini davomchilari bo‘lgan neoliberalistlardan Frayburg maktabi vakili F.Xayek va Chikago maktabining vakili amerika iqtisodchisi, Nobel mukofotlari sovrindori M.Fridmanlar ham o‘z asarlarida zamon talabidan kelib chiqqan holda mazkur muammoning turli qirralari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Ular Keynes ta’limotidan farqli o‘laroq, “davlatning tadbirkorlik” rolini yuqor baholashga qarshi chiqib, davlatning yuqori lavozimli kishilari qanchalik yuqori

malakali bo'lmasin, ular har doim ham korxonalarni boshqarish bo'yicha kerakli ma'lumotlarga ega emaslar. Undan tashqari, korxonalarning zararsiz ishlashi uchun iqtisodiy ma'suliyatni (bunday ma'suliyat mulk huquqi bilan bog'liq bo'lib, ular davlat chinovniklarida yo'qdir) o'z bo'yinlariga olmaydilar va ularda tadbirkorlik uchun kerakli bilim va mahorat mavjud emasdir.

Mazkur holat davlat erkin bozor iqtisodiyotida "g'oliblarni tanlab olish" modelidan foydalanishlari mumkin emas degan fikrni keltirib chiqarmaydi. Chunki, masalan, AQSh da davlat sanoatning muayyan sohalarini yetarlicha qo'llab-quvvatlaydi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish masalalariga kelsak, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli rejaga binoan, davlat tomonidan iqtisodiyotni eng samarali tartibga solish, bu investisiyalarni malakali kadrlarni tayyorlashga, ilmiy izlanish va tajribali konstruktorlik ishlari (NIOKR) ni qo'llab-quvvatlashga va infratuzilmani rivojlantirishga qaratishdan iboratdir.

Neoliberalar F.Xayek va M.Fridmenlar nazariyalari tarafdorlarini fikricha, davlat (hukumat) iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni va samarali investitsion qarorlarni qabul qilishga qodir emasdir, ular faqatgina bozor kuchlari orqali harakatlanishi lozimdir.

Chunonchi, F.Xayek o'zining "Narxlar va ishlab chiqarish" (1931 y.), "Qullikka yo'l"(1944 y.) va "Qonun, qonunchilik va erkinlik" (1973-79 yy.) asarlarida keynschilikning ko'pgina ko'z qarashlariga qarshi chiqib, har qanday iqtisodiy erkinlikdan va bozor baholaridan voz kechish diktaturaga, ya'ni, yakka hokimlikka, iqtisodiy qullikka olib borishini isbotlab beradi. Shu bilan birga, iqtisodiyotda bozor tizimining "aralash" va "buyruqbozlik" tizimlaridan ustun ekanligini ko'rsatib, unda "kapital" kategoriyasi abadiy ekanligini ta'kidlaydi.

M.Fridmen iqtisodiy jarayonlarda pul, pul massasi va pul muomalasi ahamiyatiga o'zining asarlarida katta e'tibor qaratgandir. Pulning aslida neoliberal monetar konsepsiyasi AQSh ning respublikachilar hukumati tomonidan olib

borilgan siyosatlari natijasida sinovdan o'tganligini va ular yaxshi natija berganligini ko'rishimiz mumkin.

M.Fridmen tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada asosiy masala – davlatning faqatgina pul-kredit siyosati orqali boshqarilishi bo'lib, unga ko'ra har yili davlat pul massasini 3-4 foizga doimiy va turg'un ravishda oshirib borishi ko'rsatilgan. U “Inflyatsiyani bartaraf etishda soliqqa tortish masalalari” (1943 y.), “Pozitiv iqtisodiy nazariya ocherklari” (1953 y.), “Iste'mol funksiyalari nazariyasi” (1957 y.), “Narxlar nazariyasi” (1962 y.), “Inflyatsiya sabablari va oqibatlari” (1963 y.) va boshqa asarlarida keynschilikka qarshi tadbirkorlik erkinligi, bozor ishlab chiqarishini o'z me'yorlarida olib borishga yordam berishini ta'minlaydi deb bilgan. Uning asosiy g'oyalaridan biri – bu davlatning asosiy vazifasi muomaladagi pul miqdori o'sishini tartibga solish bilan chegaralanishidan iboratdir.

1960-1995 yillarda iqtisodiy taraqqiyotning dunyoda eng yuqori sur'atlari kuzatilib, bunday o'sish natijasida Janubiy Sharqiy Osiyo mintaqadagi ko'pgina davlatlar o'zining iqtisodiyotini tiklab oldi va ulardagi makroiqtisodiy ko'rsatkich, ya'ni YaIMning aholi jon boshiga to'g'ri kelish darajasi jadal sur'atlarda oshib bordi. Bu mamlakatlar asosiy e'tiborini jahon bozorida foydalanishni kengaytirishga va bevosita xorijiy investisiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelishga qaratdilar. Bular esa, o'z navbatida sarmoya tushumining kengayishiga, texnologiyalarni yangilashga va tashqi savdoning rivojlanishiga olib keladi.

Hozirgi kunda globalizatsiya jarayoni dunyo mamlakatlarida sanoatlashtirish siyosatini amalga oshirishda juda ham qattiq cheklovlar qo'ymoqda. Globalizatsiyaning talablariga javob berish uchun esa, xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli raqobatni amalga oshira oladigan va xorijiy kapitalni jalb qila oladigan, tez va mos holda xalqaro maydonda uning o'zgarishlariga javob bera oladigan, JST ning mutasaddi tashkilotlarida o'z huquqlarini himoya qila oladigan iqtisodiyotni shakllantirish lozimdir.

Iqtisodiyotni yangi global savdo sharoitlariga mos kelishi borasidagi muhim rolni xususiy sektor o'ynaydi, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalar. Uning sababi shundan iboratki, zamonaviy globalizatsiya nafaqat yirik trans milliy korporatsiyalar ta'sirining o'sishi bilan, balki xalqaro savdoga va kapital oqimiga kichik va o'rta korxonalarni jalb etish orqali tavsiflanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sanoatlashtirish siyosatini muhokama qilishda, "Osiyo yo'lbarlari" deb atalmish YaIM larga murojaat qilish lozimdir. Ayniqsa, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya va Tayvan, Malayziya, Tayland va indoneziyalardagi jadal sur'atlarda amalga oshirilgan industriallashtirish jarayoni e'tiborga loyiqdir. Ushbu davlatlarning yuqori yutuqlarga erishishlari quyidagilar bilan belgilanadi:

a).o'z vaqtida va chuqur agrar islohotlarni amalga oshirilganligi;

b).faol eksportga yo'naltirilgan siyosatni olib borilishi;

v).Iqtisodiyotning sezilarli erkinlashtirilganligi, uning natijasida yuz bergan iqtisodiy o'sishni davlat emas, balki xususiy korxonalar tomonidan ta'minlanishi (ushbu Sharqiy Osiyo mamlakatlarda xususiy sektorning YaIM dagi ulushi 70-80% ni tashkil etmoqda);

g). Iqtisodiy dasturlar va davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish holatlari ma'muriy-buyruqbozlik orqali emas, balki kuchli iqtisodiy rag'batlar orqali amalga oshirilganligi.

Sharqiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy o'sishida davlat juda katta rolni o'ynadi. Aynan hukumat, u mamlakatlarda sanoatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqdi. Bunda Sharqiy Osiyo mamlakatlari hukumatlari qulay makroiqtisodiy iqlimni tashkish etish bilan birga, "g'oliblarni tanlab olish" siyosati dastaklaridan bo'lgan yuqori import tariflari, eksport subsidiyalarini va tekin tarzda xorijiy texnologiyalardan nusxa olish dastaklaridan foydalandilar.

Garchi, iqtisodiyotning va ishlab chiqarishning hamma tarmoqlari ham davlatning sanoatlashtirish siyosatiga kirmagan bo'lsalarda va ularning barchasida

ham iqtisodiy yutuqlarga erishmagan bo'lsalar ham, baribir, ushbu siyosatning o'rni va roli nihoyatda kattadir.

Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari taraqqiyotining muhim tendensiyasi – bu mintaqa mamlakatlari iqtisodining shiddatli yuksalishini bir jihatdan belgilab bergan ASEAN doirasidagi keng qamrovli iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashtirilishi bo'ldi.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, mintaqa davlatlarining iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tanlagan modellari natijasida ular hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida ustuvor pozitsiyalarni egallab kelmoqdalar. Ular orasida eng yaxshi natijalarga Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlari erishmoqdalar. Xususan, ular tanlagan iqtisodiyotni eksportga yo'naltirish modeli (Osiyocha model) 70 yillar oxiri va 80 yillar boshiga keliboq, o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi.

Garchi, 1950-60 yillarda iqtisodiy adabiyotlarda paydo bo'lgan birdan-bir yagona qoloqlikni yengish bo'yicha “rivojlanishga yetib olish” (mamlakat iqtisodiyotini industriallashtirish) konsepsiyasi olamda juda katta qiziqish uyg'otgan bo'lsada, amalda ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlar ushbu konsepsiyadan yetarlicha foydalana olmadilar.

1.2. Sanoatlashtirish siyosatining mohiyati, uning maqsad va vazifalari

Milliy iqtisodiyotni takomillashtirish va xo'jalik yuritishning innovasion shakllariga o'tishga yo'naltirilgan faol sanoat siyosati dunyoning rivojlangan mamlakatlariga nisbatan iqtisodiy o'sishdagi uzilishni kamaytirish uchun hal etuvchi zamin hisoblanadi.

Sanoatlashtirish siyosati – bu ichki va tashqi bozorlarda talab katta bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlab bera oladigan, zamonaviy jihozlar va ilg'or texnologiyalarga asoslangan raqobatbardosh sanoat yaratishga yo'naltirilgan dastaklar va tadbirlarni qo'llab-quvvatlovchi tizimdir.

Mazkur siyosat quyidagi ishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular:

- Birinchidan, mamlakatda mavjud nisbiy ustunliklarni ishga solgan holda o'z iqtisodiyotiga yordam berish;
- Ikkinchidan, mamlakatda ishlab chiqarishning yuqoriroq turini shakllantirishdan iboratdir.

Sanoatlashritish siyosatining modellaridan keng tarqalgan ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi - G'arbiy Yevropa modeli hisoblanib, unda asosiy urg'u tarkibiy siyosatga beriladi. Bunda istiqbolli tarmoqlarni rivojlantirish va zarar keltiruvchi tarmoqlarni tugatish orqali mavjud tarkibni asta-sekin yaxshilanishi nazarda tutiladi. Ushbu model G'arbiy Yevropaning yirik mamlakatlari iqtisodiyoti tarkibini yuqori diversifikatsiyalanishuvi bilan xarakterlanadi.

Sanoatlashtirish siyosatining ikkinchi modeli – “Sharqiy Osiyo” modeli deb atalib, yuqori texnologiyali tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Sanoat siyosatining ushbu modeli asosida iqtisodiy o'sishning birinchi navbatda fan-texnika yutuqlari va yuqori texnologiyalarni o'zlashtirishga (innovatsiyalarga) bog'liqligi yotadi. Sanoatlashtirish siyosatini amalga oshirishda quyidagi vositalardan foydalaniladi:

- to'g'ridan-to'g'ri davlat investisiyalari;
- subsidiyalar;
- soliq va boshqa moliyaviy dastaklar.

Sanoatlashtirish siyosatida amalga oshirish vositalari o'rtasida quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va kompaniyaning innovasion faolligini rag'batlantiruvchi raqobatchilik muhitini yaratish;
- yangi mahsulotlar va yuqori texnologiyalarni yaratilishi, o'zlashtirilishi va tarqalishini ta'minlovchi keng tashkiliy-iqtisodiy tarmoqni shakllantirish.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning sanoatlashish bosqichlarini to'rt bosqichga bo'lish mumkin. Mazkur bosqichlar Janubiy-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi yangi industrial mamlakatlarining rivojlanish o'rtasidagi farqni ko'rsatib beradi:

- Import o'rnini qoplovchi tarmoqlar rivojlantirish;
- Eksport salohiyatini va bazaviy tarmoqlarni barpo etish;
- Ilm-fan sig'imkorligi yuqori tarmoqlarni rivojlantirish;
- Yangi industrial mamlakatlarning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi.

Birinchi bosqichda (1950 yillarning o'rtalari va oxiri) xorijdan kirib kelayotgan import tovarlarni mahalliy mahsulotlar bilan almashtirish vazifasi qo'yildi. Bu esa valyuta mablag'larini tejash va ichki bozorni asosiy iste'mol tovarlari bilan to'ldirish imkonini berdi.

Lotin Amerika Yangi industrial mamlakatlari bu bosqichni Osiyo mamlakatlariga qaraganda oldinroq boshlashdi, ammo bu mamlakatlarning ichki bozor hajmi katta bo'lganligi sababli uzoq davr talab etildi. Qisqa muddat ichida (o'tgan asrning 60-yillari) Osiyo yangi industrial mamlakatlari import o'rnini qoplash bosqichidan industriallashtirish bosqichiga, eksport salohiyatini yaratishga o'tishdi. Bu bosqichda Lotin Amerikasi va osiyo yangi industrial mamlakatlari o'rtasida sezilarli farq yuz bermadi.

1960-yillarning boshi ikkinchi bosqichning boshlanishi hisoblanadi. Eksportga yo'naltirilgan siyosat borasida Lotin Amerikasi va osiyo yangi industrial mamlakatlari o'rtasida tubdan farq yuzaga keldi. Osiyo mamlakatlarida asosan ommaviy iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mehnattalab korxonlar barpo etildi. Lotin Amerika mamlakatlarida esa asosiy e'tibor qayta ishlash va qazib olish sanoatining kapital sig'imkorligi yuqori texnologik tarmoqlarini rivojlantirishga qaratildi. Osiyo yangi industrial mamlakatlarining eksportga yo'naltirilgan rivojlanish modeli iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish nuqtai nazaridan samaraliroq bo'lib chiqdi.

Yangi industrial mamlakatlarning rivojlanishidagi uchinchi bosqich – ilm-fan sig'imkorligi yuqori tarmoqlarni rivojlantirishga o'tish va mustaqil ilmiy-tadqiqot bazasini yaratish bosqichi 1970 yillarning oxiri va 1980 yillarning boshlariga to'g'ri keladi. Bu bosqichning asosiy xususiyati davlat va xususiy sektor tomonidan ilmiy-

tadqiqot va konstruktorlik ishlariga ajratmalarni oshirilib borishidir. Yangi industrial mamlakatlarda maxsus hududlar – ilmiy parklar shakllana boshladi.

Yangi industrial mamlakatlarning rivojlanishidagi to‘rtinchi bosqich – bu jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuv bosqichi hisoblanadi. Yangi industrial mamlakatlarda xorijiy kapital qatnashmagan bironta tarmoq yo‘q. Bu sohada ilgari Lotin Amerikasi mamlakatlarida AQSh kompaniyalari, Janubiy-Sharqiy Osiyoda Yaponiya kompaniyalari yetakchilik qilishgan bo‘lsa, hozirda esa teskari jarayon yuz bermoqda. Yangi industrial mamlakatlarni industriallashtirish darajasiga bog‘liq holda ularning rivojlanishida ikki bosqichni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchi bosqich – iqtisodiy o‘sishda yetakchi tarmoq sifatida qayta ishlash sanoatining rivojlanishi. Bu tarmoqda ishlab chiqarish hajmi 1960-1995 yillar mobaynida 6 baravarga oshgan. Mazkur tarmoqning rivojlanish jarayoni texnologik jihatdan oddiy va ko‘p kapital talab qilmaydigan oddiy ishlab chiqarishdan boshlangan: matolar, kiyim-kechak, poyafzal, oziq-ovqat mahsulotlari.

Ikkinchi bosqich – sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi bosqichi. Bu bosqichda rivojlanish ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortishi bilan bog‘liq bo‘lgani sababli kapital ham tegishli tarmoqlarga oqib o‘tgan. Natijada qayta ishlash sanoati mahsulotlarining umumiy ulushida ishlab chiqarish vositalari ulushining ortishi kuzatildi.

1970-yillarda ikki raqobatlashuvchi iqtisodiy va mafkuraviy tafakkur yo‘nalishlaridan iborat nazariyalar paydo bo‘ldi. Birinchi yo‘nalishning zamirida “tipik” rivojlanayotgan mamlakat hali unda o‘z-o‘zini qo‘llab-quvvatlovchi o‘sishni boshlanishidan avval bosib o‘tishi lozim bo‘lgan strukturali evolyusiya bosqichi vositasida rivojlanish g‘oyasi yotadi, ikkinchi yo‘nalish esa, – tashqi bog‘liqlik nazariyasi, ya’ni u birmuncha radikalroq va siyosiy tusga egadir. Bu nazariya kam taraqqiy etganlik fenomeniga mamlakat ichkarisidagi va xalqaro maydondagi kuchlar nisbati, alohida mamlakatlarda ham, butun dunyoda ham ikkiyoqlama xo‘jaliklar va ikkiyoqlama jamiyatlarning ko‘pchilikni tashkil etishi nuqtai nazariyadan bo‘lgan qarashlardan iborat edi.

Uchinchi yo‘nalishdagi bog‘liqlik nazariyasi tarafdorlari iqtisodiy taraqqiyot yo‘lidagi tashqi va ichki institusional to‘siqlarni mavjudligini ta’kidlashga urinar edilar. Shuningdek, qashshoqlikka qarshi kurash, yangi ish joylarini tashkil qilish, daromadlardagi tengsizlikni pasaytirish bo‘yicha yangi siyosiy yo‘lning zarurligini ta’kidlaydilar.

1980-yillarda to‘rtinchi yondashuv – iqtisodiy tafakkurdagi neoklassik nazariyalari ustunlik qilgan bo‘lib, unda asosiy e’tibor erkin bozorlarning ijobiy roliga, iqtisodiyotning ochiqligiga va samarasiz, zarar keltirayotgan davlat korxonalarini xususiylashtirishga qaratilgandir. Bog‘liqlik nazariyasidan farqli o‘laroq, rivojlanishdagi muvaffaqiyatsizliklar ba’zi bog‘liqlikda qaralmas edi. Ularning sababi davlatning iqtisodiyotga haddan tashqari ko‘p aralishuvida deb hisoblanar edi.

Neoklassiklar davlatlar muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun keng miqyosda islohotlar ham, ikkiyoqlama iqtisodiyotni qayta qurish ham, xorijiy yordamni o‘stirish ham va aholi sonining o‘shishini nazorat qilish yoki yanada samaraliroq markaziy rejalashtirish ham kerak emas deyдилar. “Erkin bozor” ga misol tariqasida Singapur, Janubiy Koreya, Malayziya, Filippin larni ko‘rsatib o‘tish mumkin, ammo, lekin. ularning xo‘jalik yuritish usulini xaqiqiy erkin bozor tizimi deb aytish qiyindir. Neokonservatorlar Afrika va Lotin Amerikasida davlatning iqtisodiyotga ko‘p aralashuvi oqibatidagi muvaffaqiyatsizliklarni ham ta’kidlab o‘tishadi.

- Butun dunyodagi ko‘rsatkichlarga nisbatan YaMM hajmi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi daromadlar rivojlanayotgan mamlakatlarda rivojlangan mamlakatlardagidan ancha kam;

- Aholi soni va uning o‘shish sur‘atlari rivojlanayotgan mamlakatlarda ancha yuqori;

- Rivojlanayotgan mamlakatlarda tashqi savdodan keladigan foydalar hajmi kichik, ularda taraqqiyot maqsadlarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyati kam;

- Rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosiy institutlar barqaror va moslashuvchan emas va boshqalar.

Moliyaviy tizimlarning iqtisodiyotni real sektorlaridagi jarayonlardan ajralib qolgan nazoratsiz rivojlanishi inqirozlar manbalariga aylanmoqda. Bunga biz 1997 yildagi Osiyodagi moliyaviy inqirozni misol qilib keltirishimiz mumkin. Osiyodagi ba'zi davlatlar, ya'ni Tailand, Indoneziya, Malayziya va Filippinlari yuksaklarga ko'tarilib ketgan iqtisodiyotlarini bir zumda qamrab olgan va qo'qisdan yuz bergan moliyaviy inqirozlar (Osiyocha kasallik) orqali ko'rishimiz mumkin. Uning sabablari iqtisodiyotning haddan tashqari ortiqcha davlat tomonidan boshqarilishi, shubhali kreditlarga to'lib ketgan bank sektori, mamlakat iqtisodiyotining i siyosatining korrupsiya bilan chambarchas bog'lanib ketganligidir.

Jahon banki mutaxassislari tomonidan belgilangan iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasini ko'rsatuvchi mezonlarga binoan, mamlakatlarni YaIM ning aholi jon oshiga to'g'ri kelish darajasi, ularning o'rtacha o'sish sur'atlari, ularni qayta ishlab chiqarish sanoatining mamlakat YaIM dagi ulushi (bu ko'rsatkich industrial davlatlarda 20% dan ortiq bo'lishi lozim), sanoat mahsulotlarining eksport hajmi, ularning xorijdagi sarmoyalari hajmi kabi ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo'lishi darkor.

Bu mamlakatlarning har birida davlat boshqaruvi bilan bozor mexanizmining hamkorligi zarurati mavjuddir. Tadqiqotlar natijasida ushbu davlatlar iqtisodiy siyosatlari tarkibida farqlar ham bo'lishi bilan birga, ularning umumiy tomonlari ham borligi aniqlandi va ular:

1. iqtisodiyot taraqqiyotining mamlakat miqyosida uzoq muddatli rejalashtirilishi;
2. erkin bozor va xususiy tadbirkorlikning rag'batlantirilishi;
3. davlatning iqtisodiyotni tartibga solishda ba'zan bevosita va maxsus shakllarda faol foydalanishidan iboratdir.

Buning natijasida Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlarida tashqi iqtisodiy aloqalar tez rivojlanib, ularning jahon xo'jaligidagi ahamiyatining yanada ortishiga

olib keldi. Yetarli darajada katta eksport va import kvotalari hamda jahon savdosidagi ulushi ularning xalqaro mehnat taqsimotiga qanchalik chuqur kirib borganligidan dalolat beradi. Tovarlar eksport bilan bir qatorda tadbirkorlik sarmoyasining chetga olib chiqilishi ortib borib, chet elda ishlab chiqarish sohasidagi filialllar va sho'ba korxonalarining tarmoqlari yuzaga kelmoqda. Bevosita xorijiy investisiyalarni sarmoyaning kredit shaklida chetga olib chiqilishi bilan to'ldirish boshlandi. Mintaqa davlatlari asta-sekin savdo bozorlari, sarmoyani qo'llash sohalari, xalqaro mehnat taqsimoti sxemasini o'zgartirish uchun ham jalb etilmoqdalar.

Importni o'rnini qoplash strategiyasining dinamik fazasi o'rtacha 12 yildan iboratdir. Sanoatlashtirishning importni o'rnini qoplash siyosati ataylab davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga qaramasdan, u mamlakatlarni mustaqil iqtisodiy rivojlanishiga yetarlicha sharoit yaratmadi. Chunki, ularning iqtisodiyoti qishloq xo'jalik va xom ashyo mahsulotlari eksportiga yuqori darajada bog'langan edi. Ichki bozorni iste'mol tovarlariga to'yintirish esa, qimmatli mashinalar va uskunalar importiga bog'liq edi. Ularning natijasida sanoat ishlab chiqarishining o'sishiga cheklovlar qo'yildi.

Shunday qilib, bu davlatlardagi importni o'rnini qoplash siyosati natijalarining ba'zi bir sabablarini ko'rib o'tamiz va ular:

- kadrlar malakasining past darajasi;
- eski texnika va texnologiyalardan foydalanish;
- aralash kadrlarning mehnat unumlorligining pastligi;
- korxonalarining tashkiliy tarkibining bo'shligi
- ichki bozorning raqobatbardosh emasligi hisoblanadi.

Mintaqa davlatlarining tanlagan iqtisodiyotni rivojlantirishni "eksportga yo'naltirilgan" modeli ulkan nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zining rivojlanishida iqtisodiyotni "eksportga yo'naltirish" da mamlakatni industrialashtirishning "Osiyocha modelini" tanlagan Janubiy Sharqiy Osiyo

davlatlari 1970 yillar oxiri va 80 yillar boshida bir qadar iqtisodiy yutuqlarga erisha boshladilar.

Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlaridagi sanoatlashtirish jarayoni XX asr oxiridagi yorqin iqtisodiy yutuqlardan biri bo‘lib, mintaqadagi iqtisodiy siyosatning shakllanishi va ishlab chiqarish munosabatlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu davlatlarning “eksportga yo‘naltirish” siyosati ularning jahon bozoriga texnik tomondan oddiy bo‘lgan mahsulotlar bilan chiqishi orqali boshlanib, unda avval importni o‘rnini qoplash bilan shug‘ullangan sanoat tarmoqlari qatnashdi. Ular mahsulotlarining yarmidan ortiqrog‘i tekstil sanoati mahsulotlari va sanoatning ko‘p mehnat talab tarmoqlari mahsulotlarini tashkil etdi. JShO mamlakatlari va boshqa Sharqiy Osiyoning to‘lov balansi muammolarini yechishda davlatning asosiy xarakati real jamg‘arishni ta‘minlash shart-sharoiti bo‘lgan xorijiy valyutaning kafolatlangan manbaini topish bo‘lib, sanoat ishlab chiqarilishida ular importni o‘rnini qoplash kursini amalga oshirish bilan birga, uning eksportga yo‘naltirilishini ham rivojlantirishdan iborat edi.

Chizma1.1.

JShO va Sharqiy Osiyo mamlakatlarining boshlang‘ich rivojlanish strategiyalari¹³

Davlatlar	Davrlar	Strategiya
Singapur	1959-1965 yy.	Importni o‘rnini qoplash
Filippin	1949-1968 yy.	Importni o‘rnini qoplash
Indoneziya	1961-1978 yy.	Importni o‘rnini qoplash
Tailand	1961-1971 yy.	Importni o‘rnini qoplash
Malayziya	1957-1968 yy.	Importni o‘rnini qoplash
Gonkong	1965-1970 yy.	Eksportga yo‘naltirish
Tayvan	1960-1970 yy.	Eksportga yo‘naltirish
Xitoy	1979-1989 yy.	Importni o‘rnini qoplash va eksportga yo‘naltirish siyosati birgalikda

¹³ Л.Оленицкая .Возможности использования опыта конкурентоспособных стратегий экономического развития НИС Азии в РУЗ. ., 2006, с.14.

Taxlil qilinayotgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, importni o'rnini qoplash strategiyasining dinamik fazasi o'rtacha 12 yildan iboratdir. Sanoatlashtirishning importni o'rnini qoplash siyosati ataylab davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga qaramasdan, u mamlakatlarni mustaqil iqtisodiy rivojlanishiga yetarlicha sharoit yaratmadi. Chunki, ularning iqtisodiyoti qishloq xo'jalik va xom ashyo mahsulotlari eksportiga yuqori darajada bog'langan edi. Ichki bozorni iste'mol tovarlariga to'yintirish esa, qimmatli mashinalar va uskunalar importiga bog'liq edi. Ularning natijasida sanoat ishlab chiqarishining o'sishiga cheklovlar qo'yildi.

Sanoatlashtirishning eksportga yo'naltirilgan strategiyasiga JShO davlatlari 1960-70 yillarda, Xitoy esa 1979 yildan so'ng o'ta boshladilar. Ushbu strategiyani tanlashdan maqsad esa, jahon xo'jaligi markazlarida sanoat tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq bo'ldi. So'ngra esa, sanoatlashtirish jarayonining chuqurlashuvi bilan mintaqa davlatlarining eksport mahsulotlari ham texnik jihatdan murakkabroq va kapital talab mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlardan tashkil topa boshladi. Ular orasida, keyinchalik, mintaqa davlatlari iqtisodiyotida o'zining nufuzli o'rnini egallagan maishiy va ishlab chiqarish (sanoat) elektronikasi, tekstil va kiyim-kechaklar alohida e'tiborga loyiqdir. Aynan shu yo'nalishlar orqali bu davlatlar xalqaro sanoat majmuasiga kirishga muvaffaq bo'ldilar. Ular, o'zlarining rivojlanishida, asosan, eng rivojlangan, ilg'or davlatlar bosib o'tgan yo'ldan bordilar. Bu borada Dj.Stiglis ta'kidlaganidek, "Bu davlatlar o'z iqtisodiyotlarini rivojlanishini ba'zi bir tarmoqlarni tanlagan himoyasiga tayangan holda, boshqa chet el kompaniyalari bilan raqobatlashish uchun yetarli kuch yig'magunga qadar rivojlantirganliklari kutilmagan holat emasdir" deydi.¹⁴

Mintaqa davlatlari iqtisodiyotida to'la qonli islohotlar boshlandi. Ushbu islohotlarning asosiy elementlari bo'lib: xorijiy qatnashuvchilar uchun moliyaviy

¹⁴ Stiglits J.E. Globalization and its Discontents. /L., 2002. P: 16-17.

sektorlarning ochib berilishi, offshor banklar uchun cheklovlarni bo'shatish, rezerv talablarini pasaytirish xizmat qildi.

Shular bilan bir qatorda, davlatlarning inqirozdan chiqib ketishiga sabab va eng asosiy omil – bu xorijiy sarmoyalarni mamlakatlar iqtisodiyotiga jalb qilish bo'ldi. Mana shu chet eldan kiritilgan sarmoyalar mintaqa mamlakatlari iqtisodiyotining tarkibiy o'zgarishlarga yuz tutishiga olib keldi. va oxir oqibatda ular iqtisodiyotini eksportga yo'naltirilgan siyosatga qaratdi.

Mintaqa davlatlarining tanlagan iqtisodiyotni rivojlantirishni "eksportga yo'naltirilgan" modeli ulkan nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda sanoatlashtirish siyosati muhim o'rin tutadi. Sanoat lashtirish siyosati – bu ishlab chiqarishning o'sishiga, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqish va joriy etishga, iqtisodiyotning tarmoq tarkibini yaxshilashga va tayyor mahsulot eksportini rivojlantirishga qaratilgan davlatning uzoq muddatli chora-tadbirlar majmuidir.

2.Bob. Xitoyda industriallashtirish jarayonining amalga oshirish bosqichlari , yonalishlari va xususiyatlari

2.1. XXRda industriallashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Xitoy iqtisodiy rivojlanishini ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr (1949-1978 yy.) - mamlakatning ijtimoiy sektor (davlat va jamoaviy korxonalar) ustun turuvchi markazlashgan rejali iqtisodiyot sharoitida rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Ikkinchi davr (1978 y. oxiridan) esa iqtisodiy liberallashtirish, xo'jalikni boshqarishda bozor tamoyillariga bosqichma-bosqich o'tishga yo'naltirilgan.

1950 yillar boshlariga kelib urushlar sababli iqtisodiy jihatdan zaif agrar mamlakatga aylangan Xitoy hukumatga XKP kelishi va XXRning e'lon qilinishidan so'ng rivojlanishning sotsialistik yo'liga qadam qo'ydi, juda qisqa muddatda sanoatlashtirish amalga oshirildi. SSSR yordamida 300 dan ortiq yirik zamonaviy sanoat ob'ektlari qurildi, qishloq joylarda kollektivlashtirish o'tkazildi va kommunalar tizimi tashkil etildi. 1950-1970 yillar Xitoy iqtisodiy rivojlanishiga 1958-1960 yillardagi "katta sakrashlar" va 1966-1976 yillarda bo'lib o'tgan "madaniy revolyusiya" kabi jiddiy siyosiy o'zarishlar salbiy ta'sir ko'rsatdi. Madaniy revolyusiya xalq xo'jaligi boshqarish tizimining izdan chiqishiga sababchi bo'ldi. Mamlakat iqtisodiyoti orqaga surildi: 1977 yilda ishchi va xizmatchilarning ish haqi 1957 yilga nisbatan 28% ga pasaydi¹⁵.

Bu davrda sotsialistik xo'jalik tizimi mustahkamlanib bordi. Shunga karamasdan aholining 80 foizi savodsiz edi. 1960 yildan boshlab, «katta sakrashlar» siyosatidan voz kechish boshlandi. Mazkur siyosatni amalga oshirishda qishloq xo'jaligida yul kuyilgan xatolar rasman tan olindi va ularni tuzatish choralari ko'rildi. Bu borada sanoat mahsulotlaridan po'lat, ko'mir, elektroenergiya, neft ishlab chiqarish xajmi oshdi va neft-ximiya, elektronika kabi yangi tarmoqlar paydo bo'ldi.

¹⁵ ВТО: механизм взаимодействия национальных экономик. Угрозы и возможности в условиях выхода на международный рынок/под ред. С.Ф.Сутырина.-М.:Эксмо,2008. С.58.

Ammo 1966 yildan boshlab to 1976 ylgacha «madaniy inqilob» boshlanib, bu jarayon yana iqtisodiy o'sishni sekinlashtirdi. 10 yillik «madaniy inqilob» davri 1949 yildan keyingi eng katta yo'qotishlarga olib keldi va mamlakat milliy daromadidan 500 mlrd. yuan¹⁶ yo'qotdi. Shunga karamasdan statistik ma'lumotlarga ko'ra qator sohalarda iqtisodiy o'sish kuzatilgan, jumladan don yetishtirish 1966 yildan 1976 yilgacha 34 foizga oshgan, sanoat korxonalari yangi ilg'or texnologiyalar bilan ta'minlangan, yangi temiryo'l liniyalari ishga tushirilgan, koinotga birinchi kosmik yuldoshlar chiqarildi.

Madaniy inqilob yillarida Hitoyda 1570 ta yirik va o'rta hamda ko'plab mayda sanoat ob'ektlari qurildi.¹⁷ "Katta sakrashlar" siyosatidan so'ng Xitoyning sobiq ittifoq mamlakatlarning deyarli hammasi bilan munosabatlari yomonlashdi. 1960 yillarda g'arb mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy munosabatlar yangi yo'nalishda olib borildi. Xitoyning AQSh va bir qator g'arb mamlakatlari bilan rasmiy munosabatlarning yo'qligi sharoitida XXR uchun g'arb texnologiyasi va asbob-uskunalarini jalb qilish va xitoy mahsulotlarini jahon bozoriga yetkazib berishning muhim yo'li bo'lgan Gonkong bilan savdo munosabatlari rivojlantirildi.

1950 yillar o'rtalari 1970 yillar oxirigacha Xitoy iqtisodiyotining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 6,6% ni tashkil etdi. 1970 yillarda o'sish pasaydi, shunday bo'lsa-da, 1978 yil islohotlar boshlanishiga Xitoy YaIMsi darajasi bo'yicha dunyoning katta yigirmataligiga kirdi¹⁸.

1970 yillar oxirida Xitoyda iqtisodiy islohotlari yo'nalishi ("islohotlar va ochiqlik siyosati") belgilanib olindi. Xitoydagi islohotlarning asosiy mazmuni rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tish edi. Ammo islohotlarning aniq ravshan konsepsiyasi va ularning yakuniy maqsadi belgilanmagan edi. Tub o'zgarishlarning rasmiy modeli bir necha marta o'zgartirilgan edi.

1984-1991 yillarda maxsus o'zgarishlar kiritilgan so'ng islohotlar aniq maqsadli sotsialistik rejali tovar xo'jaligi tizimini joriy qilish modeliga ega bo'ldi.

¹⁶ юань – хитой пул бирлиги, 10 цзяо ёки 100 финга тенг.

¹⁷ «Энциклопедия нового Китая», М.; «Прогресс», 1983, 208 с.

¹⁸ Ўша манба

Xitoy islohotlaring o'ziga xos tomoni – bu o'zgarishlarning bosqichma-bosqich bo'lishidir. Mamlakatning demografik, maydon parametrlari, rivojlanish, daromad, xo'jalik tizimidagi keskin hududiy tafovutlar inobatga olindi. Mamlakat “sakrashlar”dan charchadi, jadal sur'atdagi o'zgarishlar esa xalq noroziligiga sababchi bo'lishi mumkin edi. Islohotlarning bosqichma-bosqich borishiga yana bir sabab iqtisodiy masalalar bo'yicha mamlakat hukumatining kelishmovchiligi edi.

Xitoyda sanoatlashtirishning eksportga yo'naltirilgan strategiyasini amalga oshirish 1979 yildan boshlandi. Ushbu strategiyani tanlashdan maqsad esa, jahon xo'jaligi markazlarida sanoat tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar bo'lib, ular sanoatlashtirish jarayonining chuqurlashuvi bilan mintaqa davlatlarining eksport mahsulotlari ham texnik jihatdan murakkabroq va kapital talab mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlardan iborat bo'ldi. Ular orasida, keyinchalik, mintaqa davlatlari iqtisodiyotida o'zining nufuzli o'rnini egallagan maishiy va ishlab chiqarish (sanoat) elektronikasi, tekstil va kiyim-kechaklar alohida e'tiborga loyiqdir. Aynan shu yo'nalishlar orqali Xitoy xalqaro sanoat majmuasiga kirishga muvaffaq bo'ldi.

XX asr boshlarida esa, rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda konstruktiv materiallarni qayta ishlaydigan universal texnologiyalar ustuvorligi, uskunasozlik va mashinasozlik bilan bog'liq, asosiy infratuzilma sifatidagi temir yo'llar, ko'mir singari energiya uzatgichlari hamda po'lat singari konstruksion materiallarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan «uchinchi texnologik ukld» shakllandi.

1953 yilda mamlakatni industrialashtirish vazifasi eng asosiy masala deb belgilandi va u orqali mamlakat sanoatini qisqa davrda tiklashga kirishildi. Bu masalaga mamlakat uchun iqtisodiy qoloqlikdan va qashshoqlikdan qutulishning yagona yo'li sifatida qaraldi.

Biroq, ta'kidlash joizki, Xitoy sanoatining yuksalishiga ikki muhim omillar sabab bo'ldi:

- birinchidan, Xitoy davlati tanlagan sotsialistik rivojlanish yo‘lidagi davlatning roli uning sanoat ishlab chiqarish sur‘atlarini tezlashtirishga va unga zarur bo‘lgan mablag‘larni jalb etishga yordam berdi;

- ikkinchidan, jahon sotsialistik tizimining mavjudligi Xitoyga uning tajribasidan foydalanish imkonini berdi.

Industrialallashtirish jarayonining boshlang‘ich bosqichida Xitoyda yirik mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish davlat sektoriga qarashli bo‘lib, u boshqarishning direktiv uslublariga tayandi. Shunga qaramay, avval boshda, jamoa va xususiy mulk turlarini birgalikda olib borilishi inkor etilmadi. XXRsi Davlat Kengashi qarori bilan iqtisodiy islohotlarni boshlash lozim deb topildi va xukumat mahalliy organilariga hamda korxonalarga kengroq mustaqillik berish maqsad qilib qo‘yildi.

1956 yildagi XKPning USh s‘ezdida mamlakatdagi industrialallashtirish jarayonining 1-bosqichini tugallash uchun 15 yillik muddat belgilandi. Biroq, bu reja mamlakatda yuz bergan avantyuristik «katta sakrash» dasturi orqali uzoqroq muddatga surilib chiqarildi. Ushbu «katta sakrash» dasturi bo‘yicha, Xitoy 7 yilda Angliyani iqtisodiy rivojiga va yana 8 yildan so‘ng, Amerikaga yetib olishni ko‘zlagan edi. Xukumat tomonidan yangi qabul qilingan industrialallashtirishning «xitoy spesifikasi» kursi bir vaqtning o‘zida ham sanoatni, ham kishlok xo‘jaligini hamda kichik va yirik korxonalarda ishlab chiqarishning an‘anaviy va zamonaviy turlarini rivojlantirishni ko‘zda tutgan edi. Shu bilan birga, «o‘z kuchiga tayanish» shiori ostida hamma joyda kichik korxonalarni tashkil etish va ishlab chiqarishni umumlashtirish darajasini ahamiyatli tarzda yuqori ko‘tarish ko‘zda tutilgan edi. O‘sha davrda mamlakatda iqtisodiyot muvozanatining buzilishi, ishlab chiqarish intizomining va texnik normativlardagi buzilishlar, bilib turib atayin qilinar edi. Sanoatning boshqa sohalari orasida qora metallurgiya ustuvorlik qilar edi.

«Katta sakrash» dasturining o‘zi-o‘zini ta‘minlash va mahalliy tashabbuskorlikni qo‘llab-quvvatlash kabi ko‘rsatmalari islohotlardagi boshlang‘ich goyaning buzilishiga olib keldi.. Asosiy sanoat mahsulotlarini

markazlashgan holda taqsimlash sohasi 100 tagacha qisqardi. Mehnat, moddiy va moliya resurslariga egalik qilish sezilarli tarzda mahalliy xukumat organlariga ishonib topshirilgan edi. Jumladan, byudjet quyilmalarining 1/5 qismi ular nazoratida edi. Undan tashqari, korxonalarni boshqa sohalarda ham daromadlardan foydalanish xuquqi kengaytirildi.

«Katta sakrash» ning salbiy oqibatlari 1960 yildayoq koʻzga tashlana boshladi. Mayda ishlab chiqarishning keng tarqalishi zamonaviy sanoat ishlab chiqarishini buzilishiga olib keldi, hamda xom ashyoni ulkan miqdorda chiqitga chiqib ketishiga, energiya va mehnat resurslarini keragidan ortiqroq ishlatilishiga olib keldi. Agar, 2-besh yillikning birinchi uch yilida ishlab chiqarish 2,5 marotabaga oshgan boʻlsa, keyingi 2 yil ichida, yaʼni 1961-1962 yillarda u aksincha, 2 marotabaga qisqardi. Xalq xoʻjaligida toʻliq xoʻjalik yuritishning anarxiyasiga oʻtib ketishni real xavfi mavjudligi «katta sakrash» kursining bekor boʻlishiga olib keldi va amalda, 1958 yilda boshlangan islohotlarning barbod boʻlishiga sabab boʻldi. «Qishloq xoʻjaligi – asosiy baza» deb olingan kurs, sanoatni qishloq xoʻjaligiga yoʻnaltirdi. Mamlakatda qabul qilingan «tartibga solish» siyosatining keng yoyilishi bilan yana qattiq iqtisodiy markazlashgan tizimga va sanoat ishlab chiqarishidagi boshqaruv uslublariga qaytishni taqozo etdi.

1963-1965 yillarga kelib, yaʼni «tartibga solish» siyosati davrining yakunida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning yanada takkomillashtirish yoʻllari izlandi. Tajriba tarzida trest tipidagi ishlab chiqarish obʼektlari tuzila boshladi. Bu xarakatlar Xitoy xukumatining «soʻl qanoti»dagilarning, yaʼni oppozisiyaning kuchli qarshiligiga uchradi. Ular iqtisodiyotga bozor kuchlarini jalb etish xavfiga va moddiy ragʻbatlantirishlarga keragidan ortiqroq eʼtibor berilishiga qarshi chiqdilar. 1966 yildagi Xitoyda olib borilgan «Madaniy inqilob» siyosati partiya va davlat organlarini barbod qilish, ziyoli va texnik mutaxassislarga nisbatan qatagʻon uyushtirish bilan kechdi. Bu esa, xoʻjalik hayotini izdan chiqishiga olib keldi va sanoat ishlab chiqarishiga juda katta salbiy taʼsir koʻrsatdi.

1971 yilga kelib, Xitoy «Madaniy inqilob»ni yengib, mamlakatda chinakkam «yangi katta sakrash» holati shakllana boshladi. 1969 va 1971 yillarda sanoatning o'sishi yiliga 34,3% va 30,7% larni tashkil etdi. Bu esa qisman, «madaniy inqilob», «katta sakrash» va «tartibga solish» siyosatlari natijasida yuz bergan holatlarni tiklash jarayoni bilan kechdi.

«Yangi sakrash» konsepsiyasiga quyidagi tashkiliy chora-tadbirlar ham kiritildi. 1970 yil mart oyida XXR sini Davlat Kengashining navbatdagi «Asosiy sanoat-transport vazirligiga qarashli korxonalarni joylarda mahalliy boshqarishga berish» to'g'risidagi qarori e'lon qilindi. Mamlakatda olib borilgan «desentralizatsiya» (qayta markazlashuv) natijasida harbiy yo'nalish bo'yicha atigi 500 ta markazga bo'ysunuvchi korxona qoldi. To'rtinchi besh yillik rejasining loyihasi bo'yicha (1971-1975 yy.) mintaqada «bir butun sanoat tizimi» tashkil etish rejalashtirilgan bo'lib, unda asosiy sanoat mahsulotlariga bo'lgan talab mahalliy iste'molni qondirishga qaratildi.

Mamlakatni yana «Yangi sakrash»larga yo'naltirish avantyurasi XKP sining eng sog'lom va real fikr yurituvchi rahbarlari Chjou Enlay va Den Syaopinlar tomonidan kuchli qarshiliklarga uchradi. Demak, Xitoy Xalk Respublikasida industrial bazani yaratish ancha murakkab kechgan bo'lishiga qaramay, bu yo'nalishning fundamenti 1950 yillarda og'ir sanoatni rivojlantirish orqali o'rnatildi.

Xitoy metallurgiya sanoati ham o'zini xalq xo'jaligidagi «ustuvor» yo'nalish bo'lishiga qaramasdan, mavjud ehtiyojni na hajm jihatidan va na mahsulot sorti va sifati jihatidan qondira olmas edi. Xom ashyo bazasini torligi metallurgiya quvvatini to'liq ishlatish imkoniyatini bermas edi. Tarmoq ichkarisida mustahkam nomutanosiblik mavjud bo'lib, ular ichida prokat ishlab chiqarish ancha orqada edi. Xitoy mashinasozligining eng nozik tomoni – undagi ixtisoslashtirish (spesializatsiya) va birlashtirish (kooperatsiya) jarayonlarining ancha past darajasi bo'lib, u o'z navbatida mahsulot tonnarxini qimmatlashishiga olib kelardi. 1978

yilda Xitoydagi ixtisoslashtirilmagan mashinasozlik korxonalari bu sohadagi umumiy korxonalarning 80% ni tashkil etar edi.

Iqtisodiy islohotlargacha bo'lgan davrda sanoat xududiy tuzilishi jihatidan iqtisodiy siyosatning umumiy ko'rsatmalariga amal qilinar edi, ya'ni turli darajadagi ma'muriy rayonlar chegarasida butun sanoat tizimini tashkil etish; ishlab chiqarish kuchlarini baravar-teng taqsimlash; janubiy-g'arbiy mintaqalar ichkarisida «harbiy himoyaning uchinchi liniya»sini shakllantirish; sanoatni mahalliy xom ashyo va energiya manbalariga yo'naltirish; sanoat va qishloq xo'jaligi orasidagi, shahar va qishloq o'rtasidagi farqlarni mayda ishlab chiqarishni joriy etish orqali yo'q qilish. Ana shunday nazariy va siyosiy konsepsiyalarga yondashish kapital qurilishni tarqalib ketishiga va uning qimmatlashuviga, mavjud sanoat salohiyatidan to'la qonli tarzda foydalanmaslikka, ishlab chiqarishni takrorlashga, uning ixtisoslashuvini past darajali bo'lishiga olib keldi. Masalan, 1978-1979 yillarda ichki yonilg'ich dvigatellarini ishlab chiqarish 405 ta ob'ekt bo'yicha 28 ta ma'muriy birlikda joylashgan edi. Mamlakatda 180 ta kichik avtomobil zavodlari mavjud bo'lib, ular atigi 250 ming dona mashina ishlab chiqarar, traktor zavodlari 170 dona, podshipnik ishlab chiqaruvchi zavodlar esa 650 dona edi.

1978 yil oxirida XKP si MK sining 3 – Plenum 11-Chaqirig'ida mamlakatda iqtisodiy islohotlarni boshlash va bu islohotlarni qay tarzda amalga oshirish uchun yo'nalishlari belgilab olindi. XXR sini industriallashtirish jarayonining boshlang'ich davrini retrospektiv taxlili uning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi:

O'sish sur'atini unikal tarzda nobarqarorligi va industriallashtirish siyosatini ikki variantda bir-birini o'rnini bosishi, ya'ni «sakrash» va «tartibga solish» orqali amalga oshirilishi.

Xitoy sanoati ham, uning butun iqtisodiyoti kabi imlab chiqarishning bir necha «siklini» o'z boshidan kechirdi. Ushbu sikllar «sakrash», «inqiroz» va «tartibga solish» fazalarini o'z ichiga oladi. Sanoatning notekis tarzda dinamik

o'sishi 5 ta «pik» da (yuqori cho'qqida) ko'rinib turadi, ya'ni: 1950-53 yy.; 1956 y.; 1958 -1959yy.; 1965-1966yy.; 1969-1971 yy. Ulardan eng kuchli urinishlar 1958-1959yy. va 1969-1971 yillarga to'g'ri keladi. Birinchi «pik»dan so'ng chuqur tushkunlik, ikkinchidan keyin esa, o'sish sur'atlarining pasayishi yuz berdi.

Xitoyda 1949-1977 yillar mobaynida sanoatning o'sish sur'ati 11 marotaba 20% dan yuqori darajada ko'tarildi: jumladan – 8 marotaba – 30% dan yuqori ko'tarildi; ishlab chiqarish - 4 marotaba 40% gacha pasaydi; sanoat ko'rsatkichi amalda 2 yil o'zining oxirgi nuqtasidan qo'zg'almay turib qoldi va shu davr mobaynida faqatgina 13 yil o'zining normal 5-15% o'sish sur'ati bilan farqlandi. Kichik kollektiv (jamo) korxonalarni ishga tushirish bilan ko'p bosqichli sanoat strukturasini shakllandi. Ammo, bu jarayon ularni davlat tasarrufidan chiqishiga unchalik katta ta'sir ko'rsatmadi. Amalda uch yarusli qurilma xaqida so'z yuritiladi: Ustki qatlam(yarus) – harbiy kompleks bilan bog'liq eng yirik va ahamiyatli korxonalar (ular bir necha yuzta); O'rta qatlam – zamonaviy ishlab chiqarishning asosini tashkil etuvchi o'rta va yirik korxonalar (ular 350 mingta umumiy sanoat korxonalarining - 10 mingtasidir). Quyi qatlam – jamoa mulkiga asoslangan 260 mingta mayda korxonalardir. 1978 yil ma'lumotiga ko'ra, yalpi sanoat maxsulotlarini yarmidan ko'prog'i, asosan qishloq korxonalari orqali olingan. Ushbu «manufaktura» turidagi ishlab chiqarish, an'anaviy soha bo'lib, asosan qishloq ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan jamg'arma manbai sifatida xizmat qilishi lozim edi. Bu uch qatlamlar orasidagi kundan-kunga o'sib boraetgan farqlar (texnologiya, mexnat unumdorligi va boshkalar) kichik korxonalardagi ishchi kuchi va asbob-uskunalarining sifatini pastligi, sanoat umumiy ko'rsatkichlari samarasiga juda ham salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi.

1953-1979 yillarda og'ir sanoatning o'sish sur'ati yengil sanoatning o'sish sur'atidan 3 marotaba oshib ketdi. Yengil va og'ir sanoatlarga quyilayotgan kapital quyilmalarining quyilish nisbati 1958 yildan to 1978 yilgacha 1:10,5 ni tashkil etdi. Sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy mahsulotida og'ir sanoatning ulushi 1949 yildagi 7,9% dan 1978 yilda 42,6%ga oshdi, bunda u

yiliga o'rtacha 1,2% ga o'sib turgan. Sanoat tarkibida esa, bu ko'rsatkichlar 26,6% dan 57,9% gacha oshgan. Sanoatning tiklanishi amalda «ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarishga» olib keldi. Iqtisodiyotdagi nomutanosiblik Xitoy og'ir sanoatiga ham xos edi.

Iqtisodiy islohotlar jarayoni asosiy ikki davrni o'z ichiga olib, ular quyidagilardan iborat:

1. – 1979-1991 yillar. Bu yillarda sanoat ishlab chiqarish miqyosini kengaytirishni davom ettirish va uni boshqarishni isloh etishda birinchi qadamlar qo'yildi. Boshqarishdagi o'zgarishlar «quyi katlamga huquq berish» konsepsiyasi asosida olib borildi, bu esa davlatning mulkka bo'lgan huquqini va xo'jalik huquqini saqlab qolgan holda korxonalar mustaqilligini ancha kengaytirishga qaratilgan edi. 1984 yildan boshlab, eksperiment tariqasida, turli xildagi yangi mulk shakllari joriy etila boshladi, ya'ni: pudrat, ijara, hissadorlik jamiyatlari, pay xo'jaliklari shular jumlasiga kiradi. 1987 yildan boshlab esa, sekin-asta deyarli hamma o'rta va yirik davlat korxonalari yuqori tashkilot bilan aniq ishlab chiqarish hajmi va davlat byudjetiga mablag' ajratish to'g'risida bitim tuzib – xo'jalik yuritishning pudrat turiga o'tkazildi. 1988 yilda mamlakatda davlat sektorini isloh etishni jadallashtirish bo'yicha bir qator tadbirlar ishlab chiqildi va amalda joriy qilindi. Ushbu yilda korxonalar to'g'risidagi qonun qabul qilinib, hissadorlik bo'yicha tajribalar olib borildi va davlat mulk qo'mitasi tashkil etildi.

2. Xitoyda yangi tizimiy siyosat shakllana borib, u qishloq xo'jaligi, og'ir va yengil sanoatlar orasidagi mutanosiblikni hamda infratuzilmaviy ta'minotni yaxshilashga yo'naltirildi. 1980 yillar o'rtalariga kelib, yengil sanoatdagi sezilarli orkada qolish bartaraf etildi. O'sish sur'ati bo'yicha yengil sanoat 11,7% ni tashkil etib, ogir sanoat esa, atigi 6,6% dan iborat bo'ldi. Yengil sanoatning umumiy sanoat o'sishiga qo'shgan hissasi 59,2% ni tashkil etdi. Islohotlar davridagi 20 yil ichida mamlakatdagi sanoatlashtirish siyosati natijalarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

➤ Umuman, sanoatning o'sish sur'atlari sezilarli tezlashdi. Agar, 1953-1978 yillarda sanoat yalpi mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 6,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 1979-1998 yillarda u - 9,7% ga yetdi. Ushbu 20 yil ichida o'sish sur'atlari yiliga 6 marotaba, -20% dan o'sib, 9 marotaba – 10-15% lar atrofida bo'ldi;

➤ garchi, o'sish sur'atlari bir maromda bo'lmasada (ya'ni, 1993 yilda eng baland o'sish sur'ati – 27,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 1981 yilda eng past o'sish sur'ati – 4,3% ni tashkil etdi), amalda biron marotaba ham ishlab chiqarish pastga tushmadi, ya'ni to'liqsimonlik amplitudasi 10% dan oshgan emas edi;

➤ sanoatni to'liqsimon o'sishi, butun bir iqtisodiyot miqyosida bo'lmay, undagi har bir yirik miqyosli kapital quyilmalari sur'atlarining o'sishiga olib keldi. Unda investisiya samarasi pasayib turdi. Shu noxushliklarni yengish uchun hukumat investision siyosatni kuchaytirdi, uning okibatida o'sish dinamikasi pasaydi. Keyingi sikl esa, yana kapital quyilmalarini ko'paytirishdan boshlandi;

➤ o'sish sur'atlari bo'yicha, sanoat sohasi boshqa barcha sohalarni ortda qoldirdi, bu esa xalk xo'jaligida progressiv tizimiy (strukturaviy) o'zgarishlarga olib keldi. Sanoatning YaIM (yalpi ichki mahsulot) dagi ulushi 1996 yilda 49% ni tashkil etdi. Ikkilamchi sektor orasidagi uning qayta ishlash sanoati muhim o'rinni egalladi.

Xitoyning iqtisodiy rivojlanishidagi **industrialashtirish** jarayonlari bir necha bosqichlarga bo'linadi. Har bir bosqich takror ishlab chiqarishning turli rejimlari orqali tavisyalanadi va o'z navbatida yana quyi bosqichlarga bo'linib ketadi.

Birinchi bosqich 1950—1970 yillarni o'z ichiga oladi va markazlashgan rejalashtirishga asoslangan sanoatlashish siyosatini aks ettiradi. Ikkinchi bosqich 1980 yillardan to hozirga vaqtga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi va asosiy e'tibor bozor munosabatlariga asoslangan sanoatlashishni amalga oshirishga qaratilgandir.

Xitoy sanoatlashtirish siyosatini amalga oshirish bosqichlari¹⁹.

1960 yillar	1970 yillar	1980 yillar	1990 yillar
1965-1976 yy. Mudofaa sanoati (og‘ir sanoatni rivojlantirish)	1977-1978 yy. Asbob-uskunalar va mashinalar importi	Dengiz bo‘yi hududlarni erkinlashtirish (yengil sanoat)	Infratuzilma Yuqori texnologiyalar

Birinchi bosqich yana ikki bosqichga ajratiladi – 1950 yillar va 1960-1970 yillar. 1950 yillarda sanoatlashish davlat mulki va ishlab chiqarish vositalarini markazlashgan tartibda taqsimlash asosida amalga oshirildi. Bu davrda xorijiy kapitalga tegishli korxonalar nasionalizatsiya qilindi, qishloq xo‘jalik munosabatlarini tubdan yangilashga olib kelgan agrar islohotlar amalga oshirildi. Ushbu davrda Sobiq Ittifoq yordamida yangi sanoat tarmoqlari yaratildi. Iqtisodiyot umummilliy mobilizatsiya rejimida faoliyat olib bordi, jamg‘arish normasi jadal sur‘atlarda ortib bordi.

1950 yillarning oxirida Mao Szedunning “uch yil og‘ir mehnat va o‘n ming yil baxtli hayot” shiori ostida qisqa muddat ichida sanoat ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha g‘arbning yetakchi mamlakatlarini quvib yetish siyosati – “katta sakrash” nazariyasi amalga oshirildi. Bu davrda mayda sanoat, og‘ir sanoat tarmoqlaridagi ishlab chiqarish bilan birgalikda rag‘batlantirildi. Jamg‘arish normasi esa 40% gacha ko‘tarildi.

Xitoy iqtisodiyoti bu davrda o‘z ko‘tarilish va pasayish davrlariga ega bo‘ldi. Xitoy iqtisodiyotidagi eng yuqori o‘sish (21,3%) 1958 yilda yuz bergan bo‘lsa, eng quyi pasayish (27,3%) 1961 yilga to‘g‘ri keladi. Shunga qaramasdan Xitoy sanoat ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur‘atlari bo‘yicha kolonial tuzumdan ozod bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatini ortda

¹⁹ Новый взгляд на экономическую географию. Доклад о мировом развитии 2009. Обзор. Вашингтон. 2009. с. 352-354.

qoldirdi. Mamlakatning YaIM 1952—1978 yillarda 4,7 martaga, yalpi sanoat mahsuloti esa 12 martadan ko‘proqqa o‘tdi.

Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishidagi **ikkinchi davr** markazlashgan rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o‘tish davri sifatida baholanadi. Bu davr murakkab va keng miqyosli, tizimli yondashuvni talab etuvchi va uzoq davom etadigan davr sifatida ko‘rib chiqiladi.

2.1.2.-jadval

Xitoyda industriallashtirish jarayonining bosqichlari²⁰

Bosqichlar	Xususiyatlari
1979-1984 yy.	Madaniy inqilobning tugashi “Ochiq eshiklar” siyosatining boshlanishi
1984-1992 yy.	Sotsialistik iqtisodiyotni qurish YaIM hajmini to‘rt marotabaga oshirish
1992-2002 yy.	Sotsialistik bozor iqtisodiyotini qurish va eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiy strategiyani amalga oshirish
2002-2007 yy.	Industrializatsiyaning yangi bosqichi Mamlakat eksport salohiyatini oshirish
2008 yildan hozirga qadar	Qishloq xo‘jaligi va qishloqlarning rivojlanishida sanoatlashtirishning rolini oshirishdan

Islohatlarni **birinchi bosqichi** 1979 yildan 1984 yilgacha davom etdi, bunda asosiy e‘tibor qishloq xo‘jaligiga qaratilgan edi. Yangi islohotlarni asosiy elementi bu - oila pudratchiligiga qaratilgan bo‘lib, qishloqlarda asosiy rolni dexqon xonadoni bajara boshladi. Bunda har bir dexqon oilasiga 3-5 yil muddatga yer maydoni foydalanish uchun berilgan. Avval jamoga tegishli bo‘lgan yerlarni

²⁰ В.Гельбрас. Тридцатилетие эпохи “реформ и открытости” в Китае. //Мировая экономика и международные отношения, №6, 2009. маълумотлари асосида ҳисобланган.

deyarli 90 foizi islohatlar natijasida pudratchilik shartiga ko'ra dexqonlarga bo'lib berildi. Mazkur islohatlar davrida 220 mln.dan ortiq ish o'rinlari yaratilgan.¹

Oila pudratchiligi qishloq xo'jaligini jamoalashtirishga asoslangan edi. Iqtisodiy tizimda yer umuxalq, ya'ni davlat mulki bo'lib hisoblangan.

Ishlab chiqarish shaklida quyidagi o'zgarishdar sodir bo'ldi: qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish brigadalariga ish jarayonini olib borishdan zarur qarorlarni qabul qilish ish natijalariga qarab javobgarlik hissi kiritilgan. Davlat qishloq xo'jalik mahsulotlari narxini oshirdi. Bu islohotlar davrida avvalgi hamma teng haq oladi degan g'oya emas, balki har bir inson mehnatiga yarashasini oladi degan shior amal qilingan. Qishloq xo'jalik mahsulotlari bozori faoliyati jonlanib bordi. Iqtisodiy samaraga mehnat tashkil qilishni o'zgarishi natijasiga erishildi. Shunday qilib, oila pudratchiligiga o'tish dehqonlar faolligini oshirdi. 1978 yildan 1984 yilgacha yillik don yig'imi 300 mln. tonnadan to 400 mln. tonnagacha ko'tarildi. Paxta terimi va yog' ishlab chiqarish ikki baravar oshdi. Bug'doy yetishtirish yaxshi rivojlanib hamda tovar mahsuldorligi 20 foizdan 30 foizga oshdi (1978 yil bilan 1984 yildagi solishtirma bo'yicha). Bu davrda o'rtacha qishloq xo'jaligi YaMM yillik o'sish darajasi 9,4 foizni tashkil etdi. Umumiy qishloq xo'jaligi tovar mahsuldorligi 53,3 foizga oshdi. 1978 yilda bu ko'rsatkich 33 foizni tashkil etgan edi. 80 yillar o'rtasiga kelib Xitoy dunyoda eng yirik paxta, don, shakar yong'oq, choy, go'sht, chorva tuyog'ini ko'paytirish bo'yicha eng birinchi eksportyor mamlakatga aylandi.¹

Ammo aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yuqori darajada emas edi. Shuning uchun don, shakar, paxta kabi mahsulotlar (mamlakat ishlab chiqarishining 3-4 foizga yaqini) importi davom ettirilgan. Iqtisodiy islohotlar davrida aholi turmush darajasi oshdi. 1983 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sof foyda qishloqlarda 309,8 yuanni tashkil etdi, bu 1976 yilga nisbatan 176 yuanga ko'p edi. Besh yil ichida erishilgan ko'rsatkich 1949

¹ Ражабова З. Мировая экономика. –М.:ИНФРА-М, 2002. стр. 225.

¹ Энциклопедия нового Китая. Стр. 266.

yildan keyingi 21 yil ichida ham kuzatilmagan edi. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad deyarli ikki baravar o'sdi.

1984 yilda dehqonlar o'zlarining 60 foiz daromadini iste'molga sarflashdi. Xo'jalik islohotlari sanoatga ham ta'sir qildi hamda chet el sarmoyasiga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. 1982 yilga kelib Xitoyda oltita erkin hududlar tashkil etildi. Bu hududlarda chet el kapitaliga davlat tomonidan imtiyozlar berilgan edi. Xitoy AQSh, Yaponiya, Germaniya bilan savdo aloqalarini faol rivojlantirib bordi.

Iqtisodiy islohotlar iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham o'zini ta'sirini o'tkazdi. Rejalashtirish narx belgilash, moliya tizimi, tashqi iqtisodiy faoliyat diversifikatsiyasiga asta-sekin erkinlashtirish olib borildi. Islohotlar davrida xitoy iqtisodiyotida rejalashtirish tizimida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. 1982-88 yillarda mahsulot turini rahbariyat tomonidan rejalashtirilishi ikki baravariga - 128 dan 60 ga tushib ketdi.

Iqtisodiy islohotlarning mazkur bosqichida sanoatlashtirishning asoslari yaratildi va asosiy e'tibor ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga qaratildi. Xitoy iqtisodiy islohotlar **ikkinchi bosqichi** 1984 yil XKP ning xo'jalik tizimida islohotlar qarorini qabul qilishi bilan boshlandi va 1992 yilga qadar davom etdi. Bu qarorga binoan xitoy xususiyatiga xos sotsialistik iqtisodiyotni qurish masalasi qo'yilgan edi. Islohotlar rejali tizimi yaratishga qaratilgan bo'lib, uning asosida iqtisodiyot orqali takomillashtirilgan pul tizimini shakllantirishga erishish maqsad qilib qo'yilgan edi. Xo'jalik birlikdalariga iqtisodiy javobgarlikni yangi shakllari kiritilgan. Xitoy iqtisodiyotini rivojlantirish uchun boshqaruv organlariga zarur bo'lgan i qiyamat qonunidan ongli foydalanish natijasida sotsialistik tovar iqtisodiyotni rivojlantirishga va iqtisodiy dastaklarni erkin xarakatini ta'minlash, yangi malakali mutaxassislarni tayyorlash rejalashtirigan edi.

Shunday qilib islohotlar ikkinchi bosqichida qishloqlardan shaxarlarga ko'chdi. Shaxarlarga islohotlarning ko'chishi natijasida tashkilot xujalik erkinligini kengatirishga qaratilgan edi. Planni bajargan korxonalarga bozor marketingiga qarab, maxsulotlarni ishlab chikarishga ruxsat berilgan. Rejadan tashqari korxona

qo'shimcha daromad topishi uchun xom-ashyo va asbob uskunalarni sotib olish va yangi maxsulotni sotish xuquqiga ega bo'lgan. Qushimcha daromadni shakllantirish bilan tashkilotdan o'zlarini fondlarini tashkil topgan edi. Shunday qilib «Rejali boshqaruv» xamda «davlat narx belgilash siyosati» tizimi qisqarib bordi. Davlat tomonidan makroiqtisodiy nazorat bevositadan bilvositaga o'tdi. Mazkur islohotlar davrida davlat va tashkilotlar o'zlarining funksiyalarini bajarishgan. Eng asosiysi o'rta xususiy va jamoa tashkilotlari hunarmandchilikka, xususiy korxonalarga o'z faoliyatini yuritishga chet el samoyalarini kiritishga ruxsat berishi ijobiy natijalarga olib keldi. Shaxarlarga qaratilgan islohotlar davlatlarning iqtisodiyotga bevosita ta'sir ko'rsatishga asosiy sabab aynan shaxarlar maxsulot ishlab chiqarish markazlari hisoblangan.

80 yillar o'rtalari 90 yillar boshida Xitoy dunyo bo'yicha, paxta tolasi va sement ishlab chiqarish bo'yicha 1- o'ringa, televizor ishlab chiqarish va ko'mir qazib olish bo'yicha 2- o'rin, sulfat kislota va kimyoviy o'g'itlar ishlab chiqarish bo'yicha 3-o'rin, neft xom ashyosini qazib olish va shakar ishlab chiqarish bo'yicha 6-o'rinda (yalpi ko'rsatkichlar bo'yicha) egallab oldi. Xitoyda quyidagi yangi sanoat turlari shakllandi: metallurgiya va kon qazib chiqarish sanoati uskunalarini, ishlab chiqarish, avtomobil, aviatsiya rangli metallurgiya, yadroviy va fazoviy energetika, yirik masshtabdagi integral sxema va EXMlarni ishlab chiqarish. Og'ir va yengil sanoatlar orasidagi munosabat yaqinlashdi. YaMM xajmida sanoat maxsuloti 1949 yil 25,2 % dan 1984 yilda 53,7% gacha oshdi.

Davlat sektori hukmronlik darajasida saqlangan xolda sanoatda kooperativ va xususiy mulk hissasi oshib bordi. Ishlab chiqarish vositalarining bozori shakllandi. Rejalashtirish siyosati cheklandi, dasturiy rejalar ahamiyati sezilarli darajada pasaydi. Talab va taklif o'rtasidagi nisbat asosan bozorlarda shakllandi. XXP bu davrda yirik miqyosli sanoatlashish davrini boshidan kechirdi. Dunyoda mutloq va nisbiy ko'rsatkichlar bo'yicha eng yuqori jamg'arma normasiga ega bo'lish, qishloq xo'jalik sohasidan boshqa tarmoqlar va xizmat ko'rsatish sohalariga millionlab aholini jalb etish milliy sanoatning kompleksli tizimini

yaratish, bandlik tarkibini sezilarli darajada kengaytirish va takomillashtirish, turli-tuman yangi tarmoqlarni barpo etish imkonini berdi.

Uchinchi bosqich – 1992-2002 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrga kelib asosiy ijtimoiy-iqtisodiy qayta o‘zgarishlar davri tugatilib, kapitalni konsentratsiyalash va marakazlashtirish jarayoni boshlandi. 1992 yilda “rejali-tovar” iqtisodiyoti bekor qilindi. Mamlakatda “sotsialistik bozor iqtisodiyoti”ni qurishga va eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni yaratish strategiyasini amalga oshirishga o‘tildi. Bu davrda korxonalarning xo‘jalik faoliyati asoslari modernizatsiya qilina boshlandi. Mamlakatga xorijiy kapitalni jalb etish rag‘batlantirildi va eksport mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan maxsus hududlar barpo etildi. Ushbu hududlardagi korxonalarning xorijiy iste’molchilar uchun ishlashi yangi texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish, jahon bozorini o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqardi. Eksportga yo‘naltirilganlik ichki talab uchun ishlayotgan asosiy sanoat tarmoqlarida o‘sish sur‘atlarining pasayishiga olib keldi. 1995 yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti ning hajmi ikki martaga oshirildi.

To‘rtinchi bosqich 2002-2007 yillarni qamrab oladi. Bu bosqich industrializatsiya jarayonining yangi bosqichi sifatida baholanadi va mamlakat eksport salohiyatini oshirish davom ettirildi. Eksport sur‘atlarining yuqoriligi og‘ir sanoatning ba’zi tarmoqlarida ishlab chiqarish quvvatlarining ortiqchaligini yuzaga keltirdi. Boshqa tomondan esa ichki bozorning rivojlanmaganligi va ichki talabning pastligi sanoat rivojlanishining pasayishiga olib keldi.

Xitoyning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishi ham sanoatning rivojlanishi va uning eksportga yo‘naltilganligiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Mamlakat resurslarining cheklanganligi, yangi xorijiy bozorlarni o‘zlashtirish natijasida Xitoy rasmiy ravishda “transmilliy xo‘jalikka” o‘tdi.

1990 yillarning o‘rtalaridan boshlab “zamonaviy korxonalar tizimini” yaratish bo‘yicha ishlar boshlangan edi. Uning maqsadi davlatga tegishli korxonalardan mustaqil xo‘jaliklarni tashkil etish hisoblanadi.

Davlat kichik, oʻrta va samarasiz korxonalarning bir qismidan voz kechib asosiy eʼtiborni asosiy faoliyatidan keladigan daromadi 5 mln. yuan va undan yuqoridaromadga ega xoʻjalik subeʼktlariga qaratdi. Bu korxonalar “meʼyoriy chegaradan yuqori” korxonalar nomini oldi. 1998-2007 yillarda sanoatda ushbu korxonalar soni ikki martaga oshdi. Bu davrda davlat va davlat tomonidan nazorat qilinadigan “meʼyoriy chegaradan yuqori” korxonalar soni ikki daravarga qisqardi. Ularning “meʼyoriy chegaradan yuqori” korxonalar qoʻshilgan qiymatdagi ulushi 1978 yilda 77,6%ga teng boʻlgan boʻlsa, 2007 yilga kelib ushbu koʻrsatkich 29,5%ga tenglashdi.

Xitoy industrializatsiya jarayonidagi **beshinch** **bosqich 2008 yildan** boshlanadi. XKP MKning 17 chaqiriq 3 Plenimuda qishloq va shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yagona mexanizmini yaratish toʻgʻrisida qaror qabul qilindi. Ushbu qarordan asosiy maqsad qishloq xoʻjaligi va qishloqlarning rivojlanishida sanoatlashtirishning rolini oshirishdan iboratdir. Xitoy davlati dunyodagi yirik iqtisodiyotli mamlakatlardan biri boʻlib, uning xududida dunyo aholisining qarayib 20% idan ortigʻi (2010 y.) istiqomat qiladi va u yuqori iqtisodiy rivojlanish surʼatlari bilan xarakterlanadi. 1978-2010 yillar mobaynida uning yalpi milliy mahsuloti 17,6 baravarga oshdi, va oʻrtacha yillik oʻsish surʼati 9,5%ni tashkil etdi.

2.2.XXR da sanoat islohotlarini amalga oshirilishi va undagi zamonaviy tarkibiy oʻzgarishlar

Yoqorida naʼkidlaganimizdek, 1978 yil oxirida XKP si MK sining 3 – Plenum 11-Chaqirigʻi mamlakatda iqtisodiy islohotlarni boshlash va bu islohotlarni qay tarzda amalga oshirish yoʻnalishlarini belgilab berdi. XXR industriallashtirish jarayoning boshlangʻich davrini retrospektiv taxlili uning quyidagi xususiyatlarini ajratib koʻrsatadi: Oʻsish surʼatini unikal tarzda nobarqarorligi va industriallashtirish siyosatini ikki variantda bir-birini oʻrnini bosishi, yaʼni «sakrash» va «tartibga solish» orqali amalga oshirilishi.

Xitoy sanoati ham, uning butun iqtisodiyoti kabi inqilab chiqarishning bir necha «siklini» o'z boshidan kechirdi. Ushbu sikllar «sakrash», «inqiroz» va «tartibga solish» fazalarini o'z ichiga oladi. Sanoatning notekis tarzda dinamik o'sishi 5 ta «pik» da (yuqori cho'qqida) ko'rinib turadi, ya'ni: 1950-53 yy.; 1956 y.; 1958 -1959yy.; 1965-1966yy.; 1969-1971 yy. Ulardan eng kuchli urinishlar 1958-1959yy. va 1969-1971 yillarga to'g'ri keladi. Birinchi «pik»dan so'ng chuqur tushkunlik, ikkinchidan keyin esa, o'sish sur'atlarining pasayishi yuz berdi.

Xitoyda 1949-1977 yillar mobaynida sanoatning o'sish sur'ati 11 marotaba 20% dan yuqori darajada ko'tarildi: jumladan – 8 marotaba – 30% dan yuqori ko'tarildi; ishlab chiqarish - 4 marotaba 40% gacha pasaydi; sanoat ko'rsatkichi amalda 2 yil o'zining oxirgi nuqtasidan qo'zg'almay turib qoldi va shu davr mobaynida faqatgina 13 yil o'zining normal 5-15% o'sish sur'ati bilan farqlandi.

1953-1979 yillarda og'ir sanoatning o'sish sur'ati yengil sanoatning o'sish sur'atidan 3 marotaba oshib ketdi. Yengil va og'ir sanoatlarga quyilayotgan kapital quyilmalarining quyilish nisbati 1958 yildan to 1978 yilgacha 1:10,5 ni tashkil etdi. Sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy mahsulotida og'ir sanoatning ulushi 1949 yildagi 7,9% dan 1978 yilda 42,6%ga oshdi, bunda u yiliga o'rtacha 1,2% ga o'sib turgan. Sanoat tarkibida esa, bu ko'rsatkichlar 26,6% dan 57,9% gacha oshgan. Sanoatning tiklanishi amalda «ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarishga» olib keldi. Iqtisodiyotdagi nomutanosiblik Xitoy og'ir sanoatiga ham xos edi.

Iqtisodiy islohotlar jarayoni asosiy ikki davrni o'z ichiga olib, ular quyidagilardan iborat: 1–davr 1979-1991 yillar. Bu yillarda sanoat ishlab chiqarish miqyosini kengaytirishni davom ettirish va uni boshqarishni isloh etishda birinchi qadamlar qo'yildi. Boshqarishdagi o'zgarishlar «quyi katlamga huquq berish» konsepsiyasi asosida olib borildi, bu esa davlatning mulkka bo'lgan huquqini va xo'jalik huquqini saqlab qolgan holda korxonalar mustaqilligini ancha kengaytirishga qaratilgan edi. 1984 yildan boshlab, eksperiment tariqasida, turli xildagi yangi mulk shakllari joriy etila boshladi, ya'ni: pudrat, ijara, hissadorlik

jamiyatlari, pay xo'jaliklari shular jumlasiga kiradi. 1987 yildan boshlab esa, sekin-asta deyarli hamma o'rta va yirik davlat korxonalari yuqori tashkilot bilan aniq ishlab chiqarish hajmi va davlat byudjetiga mablag' ajratish to'g'risida bitim tuzib – xo'jalik yuritishning pudrat turiga o'tkazildi. 1988 yilda mamlakatda davlat sektorini isloh etishni jadallashtirish bo'yicha bir qator tadbirlar ishlab chiqildi va amalda joriy qilindi. Ushbu yilda korxonalar to'g'risidagi qonun qabul qilinib, hissadorlik bo'yicha tajribalar olib borildi va davlat mulk qo'mitasi tashkil etildi.

2-davr - Xitoyda yangi tizimiy siyosat shakllana borib, u qishloq xo'jaligi, og'ir va yengil sanoatlar orasidagi mutanosiblikni hamda infratuzilmaviy ta'minotni yaxshilashga yo'naltirildi. 1980 yillar o'rtalariga kelib, yengil sanoatdagi sezilarli orkada qolish bartaraf etildi. O'sish sur'ati bo'yicha yengil sanoat 11,7% ni tashkil etib, ogir sanoat esa, atigi 6,6% dan iborat bo'ldi. Yengil sanoatning umumiy sanoat o'sishiga qo'shgan hissasi 59,2% ni tashkil etdi.

Islohotlar davridagi 20 yil ichida mamlakatdagi sanoatlashtirish siyosati natijalarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

➤ Umuman, sanoatning o'sish sur'atlari sezilarli tezlashdi. Agar, 1953-1978 yillarda sanoat yalpi mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 6,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 1979-1998 yillarda u - 9,7% ga yetdi. Ushbu 20 yil ichida o'sish sur'atlari yiliga 6 marotaba, -20% dan o'sib, 9 marotaba – 10-15% lar atrofida bo'ldi;

➤ garchi, o'sish sur'atlari bir maromda bo'lmasada (ya'ni, 1993 yilda eng baland o'sish sur'ati – 27,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 1981 yilda eng past o'sish sur'ati – 4,3% ni tashkil etdi), amalda biron marotaba ham ishlab chiqarish pastga tushmadi, ya'ni to'liqsimonlik amplitudasi 10% dan oshgan emas edi;

➤ sanoatni to'liqsimon o'sishi, butun bir iqtisodiyot miqyosida bo'lmay, undagi har bir yirik miqyosli kapital quyilmalari sur'atlarining o'sishiga olib keldi. Unda investisiya samarasi pasayib turdi. Shu noxushliklarni yengish uchun hukumat investision siyosatni kuchaytirdi, uning okibatida o'sish dinamikasi pasaydi. Keyingi sikl esa, yana kapital quyilmalarini ko'paytirishdan boshlandi;

➤ o'sish sur'atlari bo'yicha, sanoat sohasi boshqa barcha sohalarni ortda qoldirdi, bu esa xalk xo'jaligida progressiv tizimiy (strukturaviy) o'zgarishlarga olib keldi. Sanoatning YaIM (yalpi ichki mahsulot) dagi ulushi 1996 yilda 49% ni tashkil etdi. Ikkilamchi sektor orasidagi uning qayta ishlash sanoati muhim o'rinni egalladi.

Mamlakatda boshlangan iqtisodiy islohotlarning maqsadi - qadam-baqadam mamlakatdagi mavjud rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'lib, unda quyidagi tamoyillarga tayanildi:

1. reja sotsializmga ekvivalent emas;
2. mamlakatdagi ishlab chiqarish kuchlariga mustaqillik berish;
3. mamlakat aholisining farovonligini oshirishga erishishda kishini kishi tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga barham berish va mavjud tafovut hamda farqlanishlarni yo'qotish.

Xitoy iqtisodiyotining rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida quyidagi ularga xos bo'lgan belgilari ma'lum bo'ldi:

- yangi va eski iqtisodiy tizimning birgalikda olib borilishi., unda yangi tizimning mutlaq shakli o'rnatilmaganligi va ba'zi bir hollarda eski tizimning ta'siri ulkan ekanligi;

- iqtisodiyotning tez sur'atlarda o'sishi inflyatsiya jarayoni bilan hamohang bo'layotganligi;

- iqtisodiyotda bosqichli davriy tebranishlarning haligacha mavjudligi;

- iqtisodiyotning o'sish sur'atlari tezlashganligi, lekin iqtisodiy samara nisbatan kichikligi;

- iqtisodiyotda bozor munosabatlarining roli va uning baynalminallashuvi uzluksiz ko'payib borayotganligi.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy strategiya mamlakatda kuchayib borayotgan inkirozni oldini olishga qaratilgan bo'lib bir vaqtning o'zida tezlik bilan muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ilmiy-texnikaviy revolyusiya talablariga

mos ravishda xo‘jalik mezanizmlari darajasini yanada ko‘tarish belgilab olingan edi.

Modernizatsiya shiori ostida o‘tgan industriallashtirish bosqichini quyidagi asosiy jihatlari orqali farqlash mumkin:

- oldingi ideologik dogmalardan voz kechish va ko‘p ukladli iqtisodiyotga burilish va tovar-pul munosabatlaridan ratsional foydalanish;
- umumjahon tendensiyalari asosida rivojlanish bosqichini ekstensiv turidan intensiv turiga o‘tish ehtiyojining paydo bo‘lishi;
- tarkibiy muvozanatga erishish;
- ochiq tashqi iqtisodiy siyosat olib borish;
- importni o‘rnini qoplash siyosatini eksportga yonaltirish varianti bilan almashtirishdan iborat bo‘ldi.

1984 yildan boshlab, eksperiment tariqasida, turli xildagi yangi mulk shakllari joriy etila boshladi, ya’ni: pudrat, ijara, hissadorlik, pay kabilar. 1987 yildan boshlab esa, sekin-asta deyarli hamma o‘rta va yirik davlat korxonalari yuqori tashkilot bilan aniq ishlab chiqarish hajmi va davlat byudjetiga mablag‘ ajratish to‘g‘risida bitim tuzib – xo‘jalik yuritishning pudrat turiga o‘tqazildi.

1988 yilda davlat sektorini isloh etishni faollashtirish bo‘yicha bir qator tadbirlar olib borish bilan kechdi. Ushbu yilda korxonalar to‘g‘risida qonun qabul qilindi, hissadorlik bo‘yicha tajribalar amalga oshirilib, mamlakatda Davlat mulk qo‘mitasi tashkil etildi.

Xitoyda yangi tizimiy siyosat shakllana borib, u qishloq xo‘jaligi, og‘ir va yengil sanoat orasidagi mutanosiblikni hamda infrastrukturaviy ta’minotni yaxshilashga yo‘naltirildi. 1980 yillar o‘rtalariga kelib, yengil sanoatdagi sezilarli orkada qolish bartaraf etildi. O‘sish sur’ati bo‘yicha yengil sanoat 11,7% ni tashkil etdi, og‘ir sanoat esa, atigi 6,6% dan iborat bo‘ldi. Yengil sanoatning umumiy sanoat o‘shiga qo‘shgan hissi 59,2% ni tashkil etdi.

1985-1990 yillarda og‘ir sanoatning o‘shish sur’atlari yanayam ko‘tarildi va u qayta ishlab chiqarish tarmog‘i faydasiga hal bo‘ldi. Agar, 1978 yilda xom

asheviy va qayta ishlovchi sohalar nisbati 1: 0,96 ga teng bo'lgan bo'lsa, 1988 yilga kelib ularning nisbati 1:1,67 tashkil etdi. Bu yo'nalishda yuqori texnologik soha ortda qola boshladi. Yengil sanoat ichida qishloq xo'jalik xom ashyosida ishlaydigan tarmoqlar juda ham tez sur'atlarda o'sib bordi, natijada ushbu tarmoqlar, nisbatan past sur'atlarda rivojlanayotgan qishloq xo'jaligiga qarama-qarshi turib, unda raqobat muhitini keltirib chiqardi.

II davr – 1992-1998 yillar hisoblanib, unda islohotlarning birinchi 10 yili natijalaridan iborat bo'lgan o'tish davri xo'jalik mexanizmi bozor qonunlari va direktiv rejalashtirish tamoyillari birligiga asoslangandir. Uning natijasida korxonalar ikki, bir-biriga o'xshamagan manbalar yordamida boshqarila boshladi, ya'ni ma'muriy boshqaruv va bozor orqali.

1989 yildagi ijtimoiy «portlash» va undan keyingi «xalq xo'jaligini tartibga solish» kursi davlat sanoat sektorida tub (radikal) islohotlar olib borishda uch yillik dam olishga, ya'ni –«pauza» ga olib keldi. 1991 yilga kelib, navbatdagi reformistik faollashuv belgilari paydo bo'la boshladi va mamlakatda iqtisodiy o'sishning yangi davri boshlandi. 1992 yilda mamlakatning kapital quyilmalari 58,6% ga o'sdi. Sanoatda ham o'sish yuz berib, u 21,7% ni tashkil etdi. Keyingi 1993 yilda ham bu sohada 22,2% o'sish yuz berib, u yana ikki yil mobaynida 20% darajasida saqlanib turdi. 1993-1994 yillarda hukumat tomonidan olib borilgan “narx-navo”ning o'sishi va kapital quyilmalari hajmining norasionalligi borasidagi unga qarshi kurash siyosati, ya'ni «yumshoq qo'nish» nomini olgan siyosat amalga oshirildi.

1996-1997 yillarga kelib, sanoatning o'sish sur'atlari 10% dan ortiqroqqa sekinlashdi. 1998 yilda esa, u yanayam sezilarli darajada pasaya bordi, uning sababi, birinchidan, Osiyodagi moliyaviy inqiroz bo'lsa, ikkinchidan, mamlakatdagi iste'mol talabining pasayishi hamda aholi iste'molining belgilangan darajadan ortib ketishi, ya'ni to'yinganligidir.

Xitoyda 1998 yildagi, 20 yillik industriallashtirish natijalarini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

Umuman, sanoatni o'sish sur'atlari sezilarli tezlashdi. Agar, 1953-1978 yillarda sanoat yalpi mahsulotini o'rtacha yillik o'sishi 6,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 1979-1998 yillarda, - 9,7% ga yetdi. Ushbu 20 yil ichidagi o'sish sur'atlari yiliga 6 marotaba - 20% dan ortiq bo'ldi, 9 marotaba esa, – 10-15% lar atrofida bo'ldi.

Garchi, o'sish sur'atlari bir maromda bo'lmasada, (ya'ni, 1993 yilda eng baland o'sish sur'ati – 27,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 1981 yilda esa, eng past o'sish sur'ati – 4,3% ni tashkil etdi), amalda esa, biron bir marotaba ham ishlab chiqarish pastga tushmadi, ya'ni to'liqsimonlik amplitudasi 10% dan oshgan emas edi.

Sanoatni to'liqsimon o'sishi, butun bir iqtisodiyot singari bo'lmadi. Undagi har bir miqyosli kapital quyilmalar yuqori sur'atlarda uni o'sishga olib kelib, undagi investisiya samarasi pasayib turdi. Shu noxushliklarni yengish uchun hukumat investision siyosatni kuchaytirdi, uning oqibatida uning o'sish dinamikasi pasaydi. Keyingi sikl esa, yana kapital quyilmalarini ko'paytirishdan boshlandi.

O'sish sur'atlari bo'yicha, sanoat sohasi boshqa barcha sohalarni ortda qoldirdi, bu esa xalq xo'jaligida progressiv tizimiy (strukturaviy) o'zgarishlarga olib keldi. Sanoatning YaIM (yalpi ichki mahsulot) dagi ulushi 1996 yilda, 49% ni tashkil etdi. Ikkilamchi sektor orasida qayta ishlash sanoati muhim o'rinni egalladi. Uning 30% atrofidagi ishlab chiqarilgan mahsuloti mashinasozlik sanoatiga to'g'ri keldi. Og'ir sanoatdagi qayta ishlash tarmog'ining ulushi 1978 yildagi 52,5% dan 1996 yilda 60% ga yetdi.²¹

Hozirgi kunda sanoat ishlab chiqarilishidagi ustuvorlik texnika sig'imi katta bo'lgan ishlab chiqarilishga berilmokda. An'anaviy tarmoqlar, ya'ni, ko'mir qazib olish, tekstil, yog'ochni qayta ishlash, oziq-ovqat, oddiy mashinasozlik tarmoklari ulushi esa, aksincha, kamaymoqda. Ulardan farqli o'laroq, neftni qayta ishlash, elektronika, kimyo, metallurgiya, transport va elektroenergetik uskunalari ishlab

²¹ Чжунго няньцзянь, 1997, 840 с.

chiqarish sezilarli tarzda ortib bordi. Ba'zi bir mashinasozlik tarmoqlari kundan kunga o'z salohiyatini oshirib borishmoqda.

Xitoy kemasozlik sanoati dunyoda uchinchi o'rinni egallamoqda. Uning ulushi – umumiy jahon kemasozligi ulushining 5% ni tashkil etada. 1990 yillar boshidan elektron uskunalar ishlab chiqarish yiliga 30% ga o'sib bordi. Bu tarmoqni sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 1990 yildagi 3,4% dan, 1997 yilga kelib – 4,6:%ga o'sdi.²²

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar ishlab chiqarish kuchlarini rasional joylashtirish siyosatini ham tubdan o'zgartirib yubordi. Mamlakatda bozor munosabatlarini xalk xo'jaligiga moslashtirish kursi e'lon kilindi. Ishlab chiqarishni rasional xududiy tashkil etilishining yangi konsepsiyasi dengiz oldi, shahar oldi, va chegara oldi rayonlari salohiyatini va eski sanoat bazalarini yuqori iqtisodiy o'sishini o'z ichiga oladi va mamlakat markaziy va g'arbiy rayonlarida joylashgan «yangi sanoat regionlarini» o'zlashtirishni ko'zlaydi.

Hozirda xitoy sanoat sohalari bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida ishlaymoqda. 300 mingta markaziy rejalashtirish tizimidagi davlat korxonalaridan, atigi 10 mingtasigina faoliyat ko'rsatmoqda. 1990 yillar oxiriga kelib, direktiv ko'rsatkichlar soni 1980 yillardagi 120 tadan, 33 taga qisqartirildi. Direktiv rejalashtirish chegarasida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotni ulushi 40% dan, 4,5 % ga qisqardi. Agar, islohotlar boshida markaziy taqsimlanishga 256 ta mahsulot turi kirgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning turi 11 taga qisqardi.²³ 14 mingdan ortiqroq, yoki yirik va o'rta davlat korxonalarining 1/3 qismi korporativ xo'jalik tizimiga o'tkazildi. Mayda korxonalarning 50% dan —70% si isloh qilindi.

Islohotlar mobaynida mamlakatda keng miqyosda sanoatni texnik rekonstruksiya o'tkazildi. Sanoatni qayta ro'yxatdan o'tkazish asosida 1995 yildagi umumiy sanoat uskunalarining barchasi 1980 yildan so'ng ishlab

²² Ли Цзинцзи. Структурные изменения в народном хозяйстве Китая и тенденции развития. Дандай цэйцзинью 1998. №5, 18

²³ Го Кэсо Гунье чжэнчжан яньцзю (Исследование качества промышленного роста) Пекин. 1998, 143 с.

chiqarilganligi ma'lum bo'ldi. Yirik va o'rta korxonalarda 26% uskunalar ilg'or xalqaro standartlar darajasiga yetqazildi. 3200 turdagi sanoat uskunalaridan – 47,1%i import qilindi, ularning 52,9% i mahalliy, ya'ni xitoyning o'zi ishlab chiqargan sanoat uskunolari hisoblandi. Sanoatdagi bandlar soni sezilarli darajada o'smoqda. 1995 yilda sanoatda 147,4 mln. kishi faoliyat ko'rsatdi yoki xalq xo'jaligidagi bandlarning 21,4% ni tashkil etdi.²⁴

Xitoy sanoatining jahon bozoriga kirishiga keng yo'l ochildi. Islohotlar mobaynida mamlakat eksporti hajmining o'sishi va uning yalpi daromaddagi ulushining ortishi bilan ko'zga tashlanib boradi. Agar 1980 yillarda bu kursatkich 3,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 1995 yillarga kelib, u 22% ga o'sdi.

Ishlab chiqarishdagi iqtisodiy samaradorlik katta muammolarni keltirib chiqardi. 30% gina davlat korxonalarini mustahkam rentabelli korxonalar qatoriga kiritish mumkin bo'lib, 40% korxonalar esa zarar keltiruvchilar qatoriga kirar edi. Hozirgi kunda sanoat ishlab chiqarilishidagi ustuvorlik texnika sig'imi katta bo'lgan ishlab chiqarishga berilmoqda. An'anaviy tarmoqlar, ya'ni, og'ir sanoati tarmoqlari rivojlanishidan boshqa, yengil sanoatning tekstil, oziq-ovkat tarmoqlari ulushini ko'paytirish choralari ishlab chiqildi, lekin shunday bo'lsada bu soha ayrim sabablarga ko'ra, aksincha, pasayishga yuz tutdi

Garchi, umumiy ishlab chiqarish miqyosi katta bo'lsada, mamlakat sanoat mahsulotlarining aholi jon boshiga iste'moli ko'rsatkichi hali ham rivojlangan davlatlarga qaraganda sezilarli darajada orqadadir. Masalan, Xitoy energiya iste'moli bo'yicha – ya'ni, 1 t. shartli yoqilg'ining iste'mol qilinishiga ko'ra, Amerika darajasidan 10% ga, Yaponiya darajasidan 25% ga orqada qolgandir²⁵.

Jahon savdo tashkilotining (JST) nizomida ko'rsatilganidek, unda davlat tomonidan faqat mahalliy yoki faqat xorijiy sarmoyalarni rag'batlantirishi ta'qiqlanadi, ya'ni ularga muayyan chegara qo'yib bo'lmaydi. 1980 yilda Xitoyda tashkil etilgan maxsus erkin iqtisodiy zonalar, aynan, xorijiy tadbirkorlik

24. Чжунго тунцзи няньцзянь. 1998. с. 432

25 Основные тенденции развития китайской экономики в XXI веке. Шэньян, 1998, с 86, Под ред. Ли Цзиньцз.

uchungina, ularga turli-tuman moliyaviy-iqtisodiy imtiyozlar berishga mo'ljallangan bo'lib, ularning mamlakat eksportidagi ulushi 1990 yillar oxiriga kelib, 1988 yilga nisbatan 2 barobarga oshdi va u 25% ni tashkil etdi. Shu bilan birga, ularning Xitoy tayyor sanoat mahsulotlari eksportidagi ulushi 40% ni tashkil etdi.²⁶

Xitoyning JST ga a'zo bo'lishi uchun qilgan xarakatlarini 2 bosqichga bo'lish mumkin: 1- bosqich – 1984 yildan to 1994 yilgacha bo'lgan davr;

2- bosqich – 1995 yildan to 2001 yilgacha.

Birinchi bosqichda, ya'ni mazkur tashkilot GATT deb nomlangan davrdan boshlab, Xitoyning JST ga a'zo bo'lishi borasida, mazkur masala bo'yicha tuzilgan ishchi guruhning 19 ta majlisi bo'lib o'tdi. Ushbu majlislar chegarasda ishchi guruh XXR ning iqtisodiy siyosatini, mamlakatning bozor iqtisodiyotiga o'tish masalalarini, uning tashqi savdo siyosati va bojxona bojlari, bojxona tarifi masalalari ikki va ko'p tomonlama muzokarlarda muhokama qilinib borildi. Xususan, Xitoy o'z tashqi savdo tizimi va milliy tashqi iqtisodiy majmuaning faoliyat ko'rsatishi bo'yicha 4,5 mingtadan ortiqroq savollarga javob qaytardi ushbu yo'nalishlarning takomillashgan variantini taqdim etdi.

Xitoy sanoatini isloh qilish 1984 yildan boshlanib, dastlab tajriba sifatida xo'jalik yurituvchi sanoat korxonalarida soliq imtiyozlari berilib, o'z-o'zini mustaqil ravishda ta'minlash tizimiga o'tildi. 1986 yilda Xitoy xukumati "Xo'jalik korxonalarini gorizontal birlashtirishning ba'zi bir jihatlari" to'g'risidagi qarorini ishlab chiqdi va e'lon qildi. Unga asosan, davlat korxonalarini qayta tashkil etish modellari ko'rib chiqildi.

Demak, **1984-1991** yy.- Xitoy og'ir sanoatini rivojlanishidagi 1-bosqich hisoblanib, unda asosan, mamlakat korxonalaridagi mavjud asosiy fondlar (asbob-uskunalar, jihozlar) qayta baholanib, ularning moddiy va ma'naviy eskirish muddatlari tekshirib chiqildi. Uning natijasida, xitoy og'ir sanoatining yetakchi tarmoqlariga xorijiy kapitalni va yangi texnika va texnologiyalarni kiritish

²⁶ М.А.Потапов. Внешнеэкономическая политика Китая: противоречия и проблемы, М.,Изд.во "Буква", 1998, 89.с.

masalalari ko'rib chiqildi hamda yangi paydo bo'lgan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Sanoatdagi ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilgandan so'ng, zamonaviy makroboshkaruv tizimi yo'lga qo'yildi. Unga ko'ra, solik, sarmoya, ijtimoiy himoya tizimlari davlatni qo'lida qoldi. 1994 yili moliyaviy soliq va bank, valyuta, narxlar tizimi ishlab chiqildi hamda zamonaviy sanoat korxonalari uchun yangi tizim qo'llanila boshlandi.

Yangi tizim bo'yicha yalpi foydadan 33% i soliqqa tortildi. Bundan tashkari, ayrim korxonalarga imtiyozlar ham yaratib berildi. Davlat sanoat korxonalarini isloh qilishdan asosiy maqsad zamonaviy korxonalar tizimini yaratishdir. Asosiy diqqat e'tibor mahsulotning sifatiga qaratildi. Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, sanoat korxonalaridagi olib borilgan ishlar faqatgina xo'jalik ob'ektlarida emas, balki xususiy korxonalarda ham amalga oshirilib bordi. Shu bilan birga, agar korxona sug'urta qilingan bo'lsa, uning uchun ham foydadan bir foiz ajratilishi lozimdir. Agarda, korxona soliq to'lay olmaydigan ahvolga tushib qolsa, bunda unga quyidagi imkoniyatlar yaratiladi. Butun mol–mulk garovga qo'uyilib, korxona aksiyalari birjada sotiladi, undan so'ng korxona bankrot deb e'lon qilinadi. Shu davrda korporatsiya boshqaruvi aksionerlar shtatlari orqali faoliyat ko'rsatib, ular orqali aksiya narxlari ham belgilanadi.

1992-1998 yy.- ikkinchi bosqichda sanoatning o'sish sur'atlari eng baland darajani, ya'ni 27,3% ni ko'rsatdi. Shu bilan bir qatorda, xalq xo'jaligida progressiv tarzda tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi. Unda ustuvorlik texnika va texnologiyalar sig'imi katta bo'lgan ishlab chiqarishga berilib, an'anaviy tarmoqlar, ya'ni, ko'mir qazib olish, yog'ochni qayta ishlash tarmoqlarining ulushi kamaytirildi. Ulardan farqli o'laroq, neftni qayta ishlash, elektronika, kimyo, metallurgiya va aviakosmik sanoatlarining salmog'i kundan-kunga ortib bordi. Mana shu tarmoqlar qatoridan xitoy kemasozligi ham rivojlanib bordi va u dunyoda 3-o'ringa chiqdi. 1995 yilga kelib, elektron sanoati mahsulotlarini ishlab

chiqarish yiliga 30% ga o'sdi. Ushbu tarmoqning sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 1990 yildagi 3,4% dan, 1997 yilga kelib, - 4,6% ga o'sdi²⁷.

Xitoyning JST ishlariga to'laqonli qatnashuvi, o'z arzon xom ashyosi va ortiqcha ishchi kuchiga tayangan xolda, unga xalqaro mehnat taqsimoti chegarasida o'zining nisbatan ustunligidan samarali foydalanishga yordam berdi. Mamlakatning JST ga a'zo bo'lishi unga yana bir qator imtiyozlarni ham berdi, ya'ni uning savdo sharoitlarini yaxshilashga, uning eksportini oshirish va differensiallashtirishga, iste'mol bozorlarini barqarorlashtirishga hamda mahsulot sifatini oshirishga yordam berdi. Bunda jahon bozoriga ochiq holda, xitoy eksportidagi eng raqobatbardosh tovarlarning (tekstil mahsulotlari, kiyim-kechaklar, o'yinchoqlar, elektronika mahsulotlari, keramika va plastmassa buyumlari, kimyo va farmasevtika mahsulotlari) chiqishi yuz berdi.

Xitoy JST ga a'zo bo'lish shart-sharoitlaridan biri – bu uning tashkilot oldiga qo'ygan talablari, ya'ni, uni rivojlanayotgan davlat maqomi ostida, unga yengillashtirilgan qulay savdo qilish tartibini berish sharti hisoblanib, agar mamlakat shu xolatda tashkilotga (JST) a'zo bo'lsa, muayyan ustunliklarga ega bo'lishi mumkin bo'ldi. Shuni yaxshi anglagan Xitoy xukumati 8 yil mobaynida o'z talabida qat'iy turdi va shu sababli uning a'zo bo'lish uchun qilgan xarakat va urinishlari biroz cho'zilib ketdi. Ammo, oldinda juda ham katta qiyinchiliklar mavjudligiga qaramasdan, Xitoy mazkur yo'nalishdagi xarakatlarini toliqmay davom ettirib keldi.

Ikkinchi bosqich esa, bu yo'nalishlarda olib borilgan kelishuvlar va maslahatli muzokaralarning murakkablashuvi bilan tavsiflanadi. Mazkur davr mobaynida savdo tashkilotining nomi o'zgartirilib, u Jahon Savdo Tashkilotiga aylantirildi. Ushbu bosqichda Xitoyning xizmat ko'rsatish sohasi (bank, moliya, sug'urta ishi, ulgurji va chakana savdo va intellektual mulk xuquqlari masalalari) dagi uning rivojlanishi bilan bog'liq masalalar muhokama qilib borildi. Unda Xitoy dunyo uchun o'z bozorlarini ochib berish va tashqi savdoni erkinlashtirish

²⁷ Ли Цзинци. Структурные изменения в народном хозяйстве Китая и тенденции развития, 1998, №5.

bo'yicha bir qator majburiyatlarni o'z bo'yniga oldi va nihoyat, uzoq va surunkali murakkab davom etgan kelishuvlar poyonida 2001 yilning 11- dekabrida XXR Jahon Savdo Tashkilotiga, uning 143-a'zosi qilib qabul qilindi.

Xitoy o'z texnik kuchi va salohiyatiga tayangan holda, yirik tog'-kon qazib oluvchi, energetika, metallurgiya, kimyo va neft-kimyosi, avtomobilsozlik, mashinasozlik va kemasozlik korxonalarini zaruriy asbob-uskunalar bilan jihozlashga qodirdir.

Xitoy yengil sanoati o'z ichiga 44 ta tarmoqni qamrab olgan bo'lib, u 200 mingtadan ortiq tovarlarni ishlab chiqaradi. Ular quyidagilardan iboratdir: qog'oz ishlab chiqarish; maishiy mashinalar; osh tuzi; oziq-ovqatlar; maishiy ishlarga mo'ljallangan silikat; yoritgich apparatlari; maishiy kimyo mahsulotlari; charmdan va junli mahsulotlar; madaniy tovarlar; san'at tovarlari; maishiy elektr jihozlari; tamaki ishlab chiqarish; paxta sanoati mahsulotlari va boshqalar. Xitoy yengil sanoati mahsulotlarining katta qismi, ya'ni, chinni, soatlar, chemodanlar, charm mahsulotlari, oyoq-kiyim, o'yinchoqlar, metall mahsulotlar, yoritgichlar, ko'zoynaklar, maishiy elektr jihozlari dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlari va xududlariga eksport qilinadi. Buning barobarida Xitoy yengil sanoati unga qanchalik davlat tomonidan yordam berilishiga va ushbu sohaga sarmoyalar kiritilishiga qaramasdan, baribir rivojlangan mamlakatlarning, ya'ni AQSh ning tekstil va yengil sanoati tarmoqlaridan ancha orqada edi. O'sha davrda AQSh da 6 mingdan ko'proq mazkur soha korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ular tarkibiga kichik oilaviy va zamonaviy yirik fabrikalar ham faoliyat ko'rsatmoqda edi. Ular eng so'nggi ishlab chiqarish uskunalari bilan jihozlangan bo'lishlariga qaramasdan, uning yengil sanoati korxonalari borgan sari jahon bozorlarida o'z o'rinlarini (pozitsiyalarini) yo'qotib bormokda edilar. Bunga sabab, jahon bozoriga Janubiy Amerika hamda Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlarining yengil sanoati mahsulotlarini kirib kelishlaridir. Shu bilan bir vaqtda ularning ishchi kuchi va tovarlari narxining boshqa davlatlarnikiga nisbatan arzonligi jahon bozorida ushbu

sanoat tarmoqlari mahsulotlarining EI va AQSh mahsulotlariga raqobatbardosh bo‘la boshladi.

Xitoyda bugungi kunda mazkur yo‘nalish boshqa yengil sanoat tarmog‘i rivojlangan davlatlarga nisbatan, ularning xom ashyo bilan ta‘minlanish darajasi ancha yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, uning tekstil sanoati tarmog‘ida tabiiy xom ashyoni ishlatish darajasi 60% ni tashkil etadi.

Xitoy iqtisodiyotida uning tekstil sanoati muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanib, bugungi kunda u jadal sur‘atlarda rivojlanmoqda. Tekstil sanoati tarkibiga kiradigan uning jun va ipak matolarni ishlab chiqarish ham rivoj topib bormoqda. Ayniqsa, yengil industriyaning asosiy mahsulotlaridan bo‘lgan muzlatgichlar, kir yuvish mashinalari, elektr ventilyatorlari va boshqa uzoq muddatga mo‘ljallangan tovarlarini ishlab chiqarish tez sur‘atlarda o‘sdi.

Hozirgi kunda Xitoydagi yuvilgan, maydalangan, rafinadli, osh va tabobat hamda yodlangan tuzlar takomillashgan texnologiyalar asosida qazib olinmoqda. Mamlakatda tamaki ishlab chiqarish ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, u Xitoyning deyarli hamma xududlarida amalga oshiriladi. Ularning asosiylari: Shanxay, Tyanszin, Uxan, Sindao, Pekin, Shenyan va Kunminda joylashgandir. Shular bilan birga, Xitoyda spirtli ichimliklar ham ishlab chiqariladi. Ular 4 ming yillik tarixga ega bo‘lib, 5 ta kategoriyaga bo‘linadi: spirtlar, uzumdan vinolar, guruchdan vinolar, pivo va mevali spirtlardan iboratdir.

Shuningdek, mamlakatda keramika ishlab chiqarish ham amalga oshiriladi. U nafaqat ichki bozorni, balki tashqi bozorga ham chinni, fayanslarni eksport qiladi. Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish markazlari Szyansi, Shandun, Xebey, Szyansu, Guandun, Lyaonin provinsiyalari hisoblanadi. Ularni ishlab chiqarish tarixi 2 ming yil oldingi davrga borib taqaladi va ulardan an‘anaviylari – oq-zangori chinni, pushti rang chinnilar hisblanadi hamda ular eksport qilinadi.

Xitoyning charm sanoati o‘z ichiga ularni qayta ishlash, oyoq-kiyim uchun charm, teri va jun mahsulotlarini ishlab chiqarishni olib, ushbu yo‘nalishlar juda ham sekin rivojlangandir. Xitoy charm kurtkalari, qo‘l qoplari, keyslar va charm

belbog'larni ichki iste'mol va eksport uchun ishlab chiqaradi. Mamlakatda 460 ta charmi qayta ishlaydigan korxonalar mavjuddir. Bunda asosan, cho'chqa terisi asosiy xom ashyo hisoblanadi.

Xitoy yengil sanoati rivojlanishi natijasida undagi ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlari ham bir necha o'n mingtadan oshib, ularda 300 mingdan ortiq mahsulotlar turlari ishlab chikarilmokda. Xitoy yengil sanoatiga kiritilgan xorijiy investisiyasi ko'rsatkichi - 40 mlrd AQSh dollarini tashkil kildi va shundan taxminan 35 mlrd dollari to'g'ridan – to'g'ri kiritilgan investisiyalar hisobiga amalga oshirildi. 2004 yil tugashi bilan tekstil va yengil sanoat tovarlariga belgilangan kvotalash tizimi olib tashlandi va shu vaqtdan boshlab, xamma davlatlarda muvozanatli vaziyat vujudga keldi.

Mazkur tarmoqda ishlab chiqarish hajmi 15,2% ga oshdi, tayyor mahsulotni ishlab chiqarilishi esa, 128 % ga kamaydi. Sohadan olingan daromadning umumiy hajmi 23,2% ga oshdi va shu yilda sanoatning boshqa tarmoqlari ham oldingi yillarga nisbatan, yuqori ko'rsatkichlarga erishdilar. 2002 yilning noyabr oyida dunyoning tekstil sanoatida depressiya holati vujudga kelishiga Xitoy tekstil sanoati mahsulotlarining eksportini ko'payib, jahon bozorida boshqa davlatlarning mazkur sohasi mahsulotlarini o'zining nisbatan, arzonroq va sifatli mahsulotlari bilan siqib chiqara boshladi. Shu yilda Xitoyning ushbu sohadan olgan daromadi - 56,08 mlrd. AKSh dollarini tashkil qildi, uning savdo balansida faol saldoning umumiy hajmi 43,012 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.²⁸

2002 yilda Xitoy iqtisodiyoti uchun bir qator yengilliklar vujudga kelib, ularga, xususan, eksport kvotalarini erkinlashtirilishi va Xitoydan xom ashyo sotib olishda chegirmalarni birmuncha qisqartirilganligi, bojxona to'lovlari kamaytirilganligi va eng asosiysi, Xitoyni jahon bozoridagi erkin raqobatda to'la qonli qatnasha olishi uchun hech qanday to'siqlarni qolmaganligi kiradi. Xitoy mazkur soha korxonalariga zamonaviy uskunalarni o'rnatib, ularda yangi va tannarx jihatdan arzonroq tovarlar ishlab chiqara boshladi. Ushbu qilingan ishlar

²⁸ Хитой Бош статистика Қўмитаси маълумотлари, 2003 й., 34 б.

natijasida tarmoqdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilga nisbatan, 35,16% ga oshdi, bu esa, tarmoqni yangilash bo'yicha rekord darajaga chiqqanligini ko'rsatdi. Zamonaviy texnik uskunalarni mamlakatdagi soha korxonalariga o'rnatilishi Xitoy yengil sanoati imkoniyatlarini yanada oshirdi va oqibatda, tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarish 30% ga oshdi. 2002 yilning o'zida Xitoyning ip-gazlama mahsulotlarini eksport qilish hajmi 34,48% ga oshdi. Bu ko'rsatkichlar o'tgan yilgi ushbu davr ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganda, u 28,11 % ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, mamlakatdagi kiyim kechaklar eksporti - 17 % ga oshgan bo'lib, undan tushgan valyuta tushumi esa, 11,02 % ga oshgandir.²⁹.

Xitoyning paxta sanoati (XPS) tekstil sanoatining an'anaviy va yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. U o'z korxonalarining soniga, ulardan olinayotgan daromadlari miqdoriga va eksportga mahsulot ishlab chiqarishga nisbatan, mamlakatning kiyim kechak sanoatidan keyingi o'rinda turadi. Xitoyning paxta sanoati mamlakat tekstil sanoatining eng yirik tarmog'i hisoblanadi. Xitoy tekstil industriyasidagi tolalarni umumiy qayta ishlanish hajmining 60% dan ortig'iga to'g'ri keladi.

1981 yildan to 2007 yillar mobaynidagi Xitoy paxta sanoatining o'sish sur'atlari yiliga o'rtacha 7,65% tashkil etdi. 2005 yilda paxta sanoatidagi yirik va o'rta korxonalarning soni 7 632 taga yetib, u 40,45%ga o'sganligini anglatadi.³⁰

Xitoyga paxta ipini importi 50 ta mamlakatdan amalga oshirildi. Bu Gonkong va Tayvanjan tashqari, asosan, Pokiston, Hindiston va Indoneziya davlatlari bo'lib, ularning mamlakat umumiy importidagi hissasi 43,49% ni tashkil etdi va ularni eksporti, asosan, Gonkongga, Janubiy Koreyaga va Yaponiyaga jo'natildi. Xitoy paxta matolarining asosiy eksport bozorlari Gonkong (tranzit savdo), Bangladesh, Benin, Janubiy Koreya, Yaponiya va AQSh hisoblanadi. Xitoy bo'yalgan va jinsi matolarining yirik eksport bozorlari Bangladesh hisblanadi. Bo'yalgan matolar

²⁹ Хитой Бош статистика Қўмитаси маълумотлари, 2003 й., 37 б.

³⁰ Хитой Бош статистика Қўмитаси маълумотлари, 2009 й., 32 б.

yana katta hajmda Indoneziyaga, Vetnamga, Kambodjaga, djinsi matolari esa, Janubiy Koreyaga, Yaponiya va Filippinga eksport qilinadi. Xitoyga katta hajmlarda matolarni eksport qiladigan davlatlar Pokiston, Hindiston va Osiyoning bir qator boshqa davlatlari hisoblanadi.

2006 yilda bo‘lib o‘tgan "21-asr – Forumi" anjumanida ta’kidlanganidek, Xitoy JST ga a’zolidigining 5 yili mobaynida mamlakat iqtisodiyoti barqaror yuqori o‘sinh sur’atlarida rivojlandi. Bunga erishish uchun Xitoy o‘zining tashqi savdosini yanada ochiq va erkinlashtirdi. Xitoy tijorat vazirining o‘rinbosari I Syaochjunning ta’kidlashicha, bu 5 yil Xitoyning eng yaxshi iqtisodiy rivojlanish yillari bo‘ldi. Xitoyning JST ga a’zo bo‘lishi unga 5 ta muhim natijalarni berdi:

➤ Birinchisi, bu barqaror iqtisodiy o‘sinh bo‘lib, u yiliga 10% ni tashkil etdi. O‘zining miqyosiga ko‘ra Xitoy iqtisodiyoti dunyoda 4-o‘ringa chiqdi. Uning tashqi savdo aylanmasi hajmi tez sur’atlarda o‘sd. Xitoyning dunyo eksportidagi ulushi 4% dan 7% gacha o‘shib, u hozirda dunyoda 3-o‘rinni egallamoqda. 5 yil ichida Xitoy umumiy hisobda 2,7 trln.doll.lik tovarlarni o‘ziga kiritdi va shuning uchun uni talabga nisbatan, “o‘ziga xos zona” deb atab, uning asosida “Xitoy imkoniyatlari” nazariyasi yaratildi;

➤ Ikkinchi natija – bu ikki tomonlama investisiyalashning o‘shishi bo‘lib, mana shu davr mobaynida Xitoy rivojlanayotgan davlatlar orasidagi xorijiy investisiyalarni eng yirik reseipienti bo‘ldi. Ushbu yillarda jamlangan xorijiy investisiyalar hajmi 280 mlrd.dollarni tashkil etib, u yiliga o‘rtacha 55 mlrd dollardan to‘g‘ri keldi. Xitoyning chet elga qo‘ygan sarmoyalari ham tez sur’atlarda o‘shib, 2005 yilda ularning hajmi 6 mlrd 920 mln dollarni tashkil etdi, u esa, 2002 yilga nisbatan, 2,6 marotabaga ko‘pdir. Ularning o‘rtacha yillik o‘shishi 38% ni tashkil etdi. Xitoyning boshqa davlatlarga qo‘ygan investisiyalari ularda millionlab ish o‘rinlarini yaratishga yordam berdi;

➤ Uchinchi natija – bu shahar va qishloqlardagi daromadlarning o‘shishi bo‘lib, 5 yil ichida mamlakat qashshoqlikni kamaytirish va aholining yashash darajasini oshirish bo‘yicha sezilarni natijalarga erishdi. Qishloqlardagi qashshoq aholining

soni 5 mln.kishiga kamayib, qishloq aholisining sof daromadi yiliga 3200 yuanni tashkil etdi. Ularning yillik o'sish sur'ati 5,3% dan iborat bo'ldi. Shahar aholisining o'rtacha yillik daromadi yiliga 10 000 yuanni tashkil etdi;

➤ To'rtinchi natija – Xitoyning xalqaro normalar bilan tanishuvi bo'lib, mana shu davrda u o'z majburiyatlarini bajarish bilan birga, milliy sanksiyalar tizimini isloh etdi, mavjud normativ aktlarni takomillashtirdi, bojxona bojlari darajasini qisqartirdi va tashqi savdoda notarif cheklovlarni bekor qildi, intellektual mulk huquqini mustahkamladi va bozor mexanizmini optimallashtirdi. Undan tashqari, u ko'p tomonlama xalqaro savdo normalarini ishlab chiqishda faol qatnashib, rivojlanayotgan mamlakatlar nomidan 67 ta takliflarni berdi;

➤ Beshinchi natija - bu milliy ishlab chiqarishni qo'llab quvvatladi. Xitoy JST ga a'zo bo'lgandan so'ng, uning avtomobil eksporti yiliga 30% ga o'sdi.

Mamlakatning industrial qudrati ortgani sari, sohalar tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. 1999-2010-yillar og'ir sanoatni rivojlantirishdagi 3-bosqich hisoblanib, unda ham turli o'zgarishlar yuz bermoqdadir.

Jadval 2.2.1.

**1997-2010 yillarda Xitoy iqtisodiyotining sohalar tarkibidagi
o'zgarishlar³¹**

Ishlab chiqarish hajmi (100 mln.yuan)				3 ta soha industriyaning salmog'i, % da		
yillar	1 soha	2 soha	3 soha	1 soha	2 soha	3 soha
1997	14211	37223	23029	19,1	50,0	30,9
2003	17092	61131	38675	14,6	52,3	33,1
2007	21476	89769	41234	18,1	47,1	34,8
2010	28570	123760	65600	17,9	42,8	39,3

³¹ Манба Экономика Китая, Ван Мэнкуй и др. февраль, 2005, с.26 ва Хитой Бош статистика Қўмитаси маълумотлари, 2011.

Mamlakatda muayyan sanoatni rivojlantirish siyosatini amalga oshirish natijasida, ya'ni, sanoatga xorijiy sarmoyalarni jalb etish va dunyodagi 500 Trans milliy korporatsiyalarning 400 tasi o'zining filiallarini va vakolatxonalarini Xitoyga joylashtirish natijasida, uning energetika, elektronika, mashinasozlik, aviasozlik, kimyo, oziq-ovqat sanoatlari tez sur'atlarda rivojlandi.

Oxirgi yillarda Xitoyda kosmanavtika sohasiga katta e'tibor qaratilib, yerning sun'iy yo'ldoshlarini uchirish texnologiyalari o'zlashtirilmoqda. Shular bilan bir qatorda, ushbu yo'nalishda yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlari orta boshladi. Hozirda mashinasozlik tarmog'i mahsulotlarining turlari 53 mingtadan ortib, ular mamlakat ichki iste'molini to'la qondirmoqdadir. Undan tashqari, xom ashyo zahiralarining katta qismiga ega bo'lgan Xitoy davlati metallugiya tarmog'ini kelajak rivojiga mustahkam asos yaratdi. Mamlakatda oxirgi yillarda olib borilgan keng miqyoli geologik ishlar shuni ko'rsatdiki, mamlakatda yangi temir, magniy ruda konlari, ko'mir, neft va boshqa xom ashyo konlari ochilmoqda. Xitoy temir rudasining zahirasi bo'yicha dunyda 3-o'rinni egallab, tekshirilgan magniy rudalari zahirasi bo'yicha 2-o'rinni egallamoqdadir.

Umuman olganda, mamlakatdagi qora metallurgiya korxonalarining soni hozirda 1500 taga yetqazilgan bo'lib, bu sohanig o'ziga xos muammolari ham mavjuddir. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- metallurgiya sanoatining umumiy texnik darajasi uncha yuqori bo'lmay, uni zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash qisman import evaziga ro'y bermoqda;
- Mamlakatdagi 70% korxonalarda atrof muhitni zararli unsurlardan tozalash uskunalari yaxshi ishlamaydi, yoki umuman mavjud emasdir.

Yuqorida ta'kidlaganizdek, Xitoyda 1000 dan ortiq sortlarda po'lat ishlab chiqarilib, ular jumlasiga aviatsiya sanoati uchun o'tga chidamli eritmalar, yadro bo'laklari tezlatkichlari uchun yuqori darajali po'latlar kiradi. Mamlakatda volfram, qo'rg'oshin, surma, simob va molibden konsentratsiyalari katta hajmda ishlab chiqarilishiga qaramay, unga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Shu bilan birga, Xitoy o'zida alyuminiy, qo'rg'oshin va sinkni ham ishlab

chiqaradi, lekin unga bo'lgan ichki talabni to'litq qondirolmaydi va yetishmagan hajmini chetdan import qiladi.

Sanoatning asosiy mahsulot turlari bo'yicha tanqisligi (defisiti) muammosini hal etish bilan birga, mamlakat ishlab chiqarish kuvvatining norasional ortikchaligi muammosiga yuz tutdi. Ya'ni, bunda metallurgiya sohasida 1/3 kismni, tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishda – 40% ni, avtomobillarni ishlab chiqarish bo'yicha – 50% ni, rangli televizorlarni ishlab chiqarish bo'yicha – 60% ni tashkil etdi.

Jadval 2.2.2.

Xitoy og'ir sanoati tarmoqlarining tarkibiy tuzilishi va dinamikasi

(1990-2010 yillar)³²

Sanoat tarmoqlari	Ularning og'ir sanoatdagi salmog'i (%)da	
	1990 y.	2010 y.
Og'ir sanoatni yalpi mahsuloti	100	100
Metallurgiya	10,7	13,1
Elektroenergetika	7,8	8,4
Ko'mir qazib olish	4,8	4,9
Neft qazib olish	5,5	5,9
Kimyo sanoati	11,5	13,1
Mashinasozlik	26,8	24,3
Elektronika	4,8	5,8
Aviatsiya va kosmik sanoat	14,8	11,2
qurilish materiallarini ishlab chiqarish	6,6	4,9
Kemasozlik	6,9	8,5

Mamlakatga jalb etilgan xorijiy texnologiyalar asosida maishiy texnika (televizorlar, sovutgichlar, audioapparaturalar, komp'yuterlar) jihoz va uskunolari ishlab chiqarila boshlandi. Ushbu qilingan ishlar samarasi aholining turmush

³² Факты и цифры, Пекин, 2010 г., Изд.во «Синьсин»,асосида тузилган,

sharoitlarini yaxshilashga olib keldi. 1978-2007 yillardagi yalpi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning oʻrtacha yillik oʻsishi 14% ni tashkil etdi. Hozirgi kunda Xitoy oʻzining yuqori texnologik tovarlarni ishlab chiqarishi bilan koʻpchilik ilgʻor davlatlarga, xususan, Yaponiya, AQSh, Janubiy Koreya, Sigapur va boshqalarga raqobat muhitini yaratmoqda. Ushbu sohani rivojlantirish uchun Xitoyda davlat dasturlari ishlab chiqilgan boʻlib, ushbu dasturlar orqali, innovasiion texnologiyali korxonalarga muayyan sharoitlar yaratildi. Mazkur dasturlarda koʻrsatilganidek, Xitoyni ushbu soha boʻyicha dunyo ishlab chiqaruvchilari qatorining birinchi 10 ligiga kirishida quyidagi omillar katta rolni oʻynadi:

- mamlakatda yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi milliy korxonalarga va qoʻshma korxonalarga maxsus imtiyozlar beriladi (yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar maqomi 5 yilga, texnologiyalarni uzoq oʻzlashtirish muddati bilan 7 yilga beriladi);

- ushbu yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun daromad soligʻi 15% ni, oʻz mahsulotining 70% ini eksportga chiqaruvchi korxonalar uchun – 10% stavkada soliq belgilangandir;

- milliy korxonalar uchun 1 yilga, qoʻshma korxonalar uchun - 2 yilga “imtiyozli soliq taʼtillari” belgilangandir;

- mamlakatda ilmiy-texnikaviy va tajriba konstruktorlik ishlarni amalga oshirish uchun uskunalar va jihozlar importiga va eksport mahsulotlari uchun materiallarga boj toʻlovlari bekor qilingandir.

Jadval 2.2.3.

Xitoy sanoat ishlab chikarish samaradorligi koʻrsatkichlari dinamikasi ³³

	1980y	1990y.	1995y.	2000y.	2005y.	2010y.
Fondlar b/cha rentabellik (%da)	25,2	12,2	8,3	6,2	7,3	5,9
Mahsulotlar b/cha rentabellik(%da)	22,7	10,4	9,2	7,8	14,2	9,4

³³ Манба: Чжунго гуные цзинцзи туецзи цзыляо(1980;1998-2010)

100 yu.asosiy. fond.ga soliqlargacha bo'lgan. daromad(birlamchi qiymat bo'yicha)	25,6	13,5	11,2	8,3	13,7	9,7
100yu.foydaga savdodan tushgan daromad yu.	—	3,3	3,1	2,2	3,6	2,8
Aylanma fondlar aylanmasi (1y.1marta)	—	2,9	1,6	1,4	1,9	1,4
qo'shimcha qiymat normasi(%da)	—	—	28,1	24,7	27,6	20,0
Mahsulot savdosi foizi	—	—	95,9	96,6	99,2	71,9
Sanoat i/ch samaradorligi indeksi(%da)	—	—	80,0	92,5	98,1	79,2

Xitoyning eksportida yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishi, uning an'anaviy sohalarini siqib chiqarmoqda. Agar, 2004 yilda yuqori texnologik mahsulotlarni eksport qilish natijasida mamlakatga 200 mlrd. AQSh doll. yoki eksport umumiy hajmining - 34% ini tashkil etib, 2005 yilda esa, ushbu ko'rsatkich 240 mlrd.doll. ko'paydi. Quyida xitoy texnoparklaridagi korxonalar soni va ularning yalpi ishlab chiqargan mahsulotlarini o'sish dinamikasini ko'rish mumkin.

Jadval 2.2.4.

Xitoy texnoparklaridagi korxonalarning soni³⁴

	1997 y.	2003 y.	2009y.
Hammasi	13681	25000	30470
100 mln. dan tortib 1 mlrd.yuangacha bo'lgan yalpi mahsulotli korxonalar soni	520	1539	2123
1 mlrd.dan 5 mlrd.yu.gacha bo'lgan yalpi mahsulotli korxonalar soni	47	185	214
5 mlrd.yu.dan yuqori bo'lgan yalpi mahsulotli korxonalar soni	5	10	22

O'tgan davr mobaynida mamlakatda 32 ta erkin – savdo rivojlanish, 53 ta yuqori texnologik ishlab chiqarish zonalari tashkil etildi va ular orqali 600 ta Xitoy

³⁴ Китай.-Пекин, “Синьсин”, 1999, с.225-226; Китай.-2004.-Пекин,”Синьсин, 2004, с.126.”, Китай.-2010.-Пекин,”Синьсин”, с.119.

olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy-texnikaviy yutuqlar sotuvi amalga oshirildi. 1997-2010 yillar mobaynida innovatsion ishlab chiqarish korxonalarining o'rtacha o'sish miqdori 80% ni tashkil etdi

Xitoy sanoatlashtirish siyosatining hamma yutuqlarini e'tiborga olish bilan birga, shuni ta'kidlash joizki, mamlakatdagi industriallashtirish jarayoni hali ham tugallanganicha yo'qdir. Xitoy iqtisodchilarining fikricha, bu jarayon «oralik bosqichida» qolmokda, ya'ni, u «miqdoriy» o'sishdan «sifat» bosqichiga o'tish arafasidadir. Bu narsani biz mamlakatning bandlik strukturasidan ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda ham xalk xo'jaligidagi ishchilarning yarmi – birlamchi sektorda, ya'ni qishloq xo'jaligida band bo'lmokda. Ikkilamchi sektordagi ishchi va xizmatchilar ulushi 23,4 ga to'g'ri kelmokda.

Umuman olganda, Xitoy sanoat ishlab chiqarishi o'zining rivojlanishida o'sishning ekstensiv tipi bo'yicha omillarni ustunligini qiskartish muammosi bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib qolmokda va bu hukumat tomonidan sanoatlashtirish siyosatining quyidagi yo'nalishlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi:

- Industriallashtirish jarayonida «sifat» bosqichiga o'tish va ishlab chikarishni axborot bilan ta'minlash;
- Mavjud tarmoqlarni texnik jihatdan qayta qurish va Yangi ilm va fan sig'imi katta tarmoqlar yaratish;
- O'z ilmiy va texnik ishlanmalariga e'tiborni qaratish va ular asosida yangi texnikalar yaratish;
- Xom ashyo balansidan rasional foydalanish asosida yirik va mayda kayta ishlash korxonalarini kayta kurish;
- Mustakil tovar ishlab chiqaruvchi «zamonaviy korxonalar tizimi»ni shakllantirishdan iboratdir.

3-Bob. Xitoyda industriallashtirish jarayonini takomillashtirish

istiqbollari

3.1. Xitoy industriallashtirish jarayoniga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ta'siri

2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Xitoy iqtisodiyotiga ham jiddiy zarar yetkazdi. Shu yili Xitoy hukumati moliyaviy inqirozga qarshi 4 trln. yuan (586 mlrd. doll. yoki YaIM ning 13,3% ni tashkil etadi) sarfladi (3.1.1.- jadval). Mazkur mablag'lar xitoy iqtisodiyotining yengil sanoat, mashinasozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik, po'lat eritish, informatsion texnologiyalarni rivojlantirish, neft-kimyo, logistika, rangli metallurgiya kabi tarmoqlariga yo'naltirildi.

Xitoy hukumatining inqirozga qarshi dasturi o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. 2009 yilning birinchi choragida Xitoy iqtisodiy o'sish sur'ati 6.5 foizni tashkil etdi. Shu davr ichida 2.6 mln. yangi ishchi o'rinlari yaratildi, shahar va qishloq aholisining daromadlari mos ravishda 11.2 va 6.8 foizga oshdi.

3.1.1-jadval

Xitoy hukumatining inqirozga qarshi kurash dasturining xarajatlar tarkibi³⁵

	Jami moliyaviy mablag', 2008-2010 yy., mlrd. yuan
Jami	4000
Uy-joy qurilishi	400
Qishloq infratuzilmasi (suv bilan ta'minlash, elektroenergiya, mahalliy yo'llar)	370
Transport (temir yo'llar, aeroportlar, avtomagistrallar)	1500
Sog'liqni saqlash va ta'lim (maktablar va kasalxonalar qurish)	150
Energetika va atrof-muhit himoyasi	210
Innovatsiyalar	370
Sichuan provinsiyasida yer qimirlashi tufayli zarar ko'rgan hududlarni ta'mirlash, 2008 y.	1000

³⁵ www/worldbank.org.

Xitoy hukumatining chora tadbirlari inqiroz oqibatlarini lokalizatsiya qilish bo'yicha choralar davlat harajatlarini ko'paytirishni o'z ichiga oladi.

Xitoy hukumati tomonidan olib borayotgan inqirozga qarshi choralar xitoy iqtisodiy siyosatining inqiroz boshlanmasdan e'lon qilingan uzoq muddatli maqsadlariga mos keladi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan industrializatsiya jarayonlarining asosiy omili iqtisodiyotga sarflanayotgan investitsiyalar hisoblanadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida Xitoy iqtisodiyotga investitsiyalarni joylashtirishda yetakchilikni saqlab qolmoqda va investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omili hisoblanadi. Masalan, 2009 yilning birinchi yarmida Xitoyda investitsiyalar, iste'mol va eksport iqtisodiy o'sishga turlicha ta'sir ko'rsatgan. Ushbu davrda YaIM investitsiyalar ta'sirida 6,2% ga va iste'mol ta'sirida esa 3,8% ga qo'shimcha o'sgani holda, eksportning qisqarishi tufayli 2,9% ga pasayganligini kuzatish mumkin³⁶.

Jadval 3.1.2.

Xitoy Xitoyning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
(o'tgan yilga nisbatan qo'shimcha o'sish sur'atlari, %da)³⁷

	2005	2006	2007	2008	2009*
Real YaIM	10.4	11.6	11.9	9	6.5
Iste'mol	7.3	8.4	10.1	8	7.8
Asosiy kapitalga investitsiyalar	11	13	11.4	8.8	7.7
Eksport	24.3	23.3	19.9	7.8	-6
Import	11.4	14.5	13.9	3.6	-4
Inflyatsiya (o'rtacha yillik)	1.8	1.5	4.8	5.9	0.5
YaIM deflyatori	3.8	3.6	7.4	7.2	2
Byudjet daromadlari, YaIMga nisbatan %da	17.3	18.3	20.6	20.4	19.7
Byudjet xarajatlari, YaIMga nisbatan %da	18.5	19.1	19.9	20.7	22.9
Joriy operatsiyalar qoldig'i, mlrd. doll.	161	250	372	416	425
Joriy operatsiyalar qoldig'i, YaIMga nisbatan %da	7.1	9.5	11.3	9.6	8.8
Kapital operatsiyalar qoldig'i, mlrd. doll.	47	-3	90	33	0

³⁶ Ни Сяолинъ. Расширять внутреннее потребление! //Китай, №9 (47), 2009. С.32.


³⁷ www/ world bank.org.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar, mlrd. doll.	68	60.3	122	92.4	60
Xalqaro zahiralarning ko'shimcha o'sishi, mlrd. doll.	207	247	462	420	425
Xalqaro rezervlar hajmi, mlrd. doll.	819	1066	1528	1951	2376

**2009 yil ma'lumotlari I kvartal uchun berilgan.*

Tahlillar ko'rsatishicha, Xitoy iqtisodiyotiga kiritilgan kapital qo'yilmalar hajmi 2008 yilda YaIMga nisbatan 57,3% ni tashkil etgan va ushbu ko'rsatkich 1985 yilga nisbatan ikki baravarga oshgan (3.1.1-rasm). Iqtisodiyotga sarflanayotgan investisiyalar hajmining yuqori darajada saqlab turilishi Xitoy iqtisodiyotini 11-besh yillik (2006-2010 yy.) va keyingi o'n yil mobaynida rivojlantirish vazifalaridan kelib chiqib belgilangan. Ushbu rejaga muvofiq 2010-2020 yillar mobaynida mamlakat YaIMni to'rt baravarga oshirish vazifasi qo'yilgan.

iqtisodiyotida investisiyalar dinamikasi **(YaIMga nisbatan foiz hisobida)³⁸**




3.1.1-rasm

Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida TTXI uchun qulay investisiya muhitini yaratgan mamlakat Xitoy hisoblanadi. Masalan, 2005 yilda mamlakat hissasiga jami TTXIning 8% i (72,4 mlrd. doll.), 2006 yilda 5% i, (69,5 mlrd. doll), 2008 yilda esa 10,1% i to'g'ri kelgan. TTXI jalb etilgan. Xitoy iqtisodiyotiga TTXI XX asrning 80 yillaridan yuqori sur'atlarda kirib kela boshlagan. 1980 yilda Xitoy

³⁸ Островский А.В. Подготовиться к мировому кризису – китайский рецепт. //ЭКО, №5, 2005. С.38.

iqtisodiyotida jamg'arilgan TTXI 1 mlrd. dollarni, 10 yildan keyin 21 mlrd. dollarni, yana 10 keyin esa 193 mlrd. dollarni tashkil etgan. Oxirgi yillarda ushbu ko'rsatkich 1,5 martaga ortgan va hozirda 293 mlrd. dollariga teng deb, baholanmoqda³⁹.

**Xitoy iqtisodiyotiga yo'naltirilgan TTXI dinamikasi, mlrd. doll.
(moliya sektoridan tashqari)⁴⁰**



**2009 yil ma'lumotlari yanvar-iyul uchun berilgan.*

3.1.2-rasm

2009 yil iyul oyida Xitoy iqtisodiyotiga sarflangan TTXI hajmi 2008 yilning iyul oyiga nisbatan 35,7% ga kamaydi. Umuman, 2009 yil yanvar-iyul oylarida Xitoy iqtisodiyotiga sarflangan TTXI hajmi 48,3 mlrd. dollarga teng bo'lib, avvalgi yilga nisbatan 20% ga qisqargan. Ushbu holat qator sabablar ta'sirida sodir bo'lgan⁴¹.

Birinchidan, yoz oylari uchun investitsiyalarning keskin chayqalishi xosdir.

Ikkinchidan, Xitoy yetarli oltin-valyuta zaxirasiga ega bo'lganligi sababli xorijiy investitsiyalar uchun yaratilgan qulay investitsiya tartibini bekor qildi hamda 2010 yildan boshlab Jahon savdo tashkilotiga to'liq a'zolik majburiyatlarini bajarishi tufayli milliy kapital xorijiy investitsiya o'rnini qopladi. Yuqoridagi sabablarga ko'ra Xitoyda xorijiy investitsiyalar infratuzilma ob'ektlari, ko'priklar

³⁹ Швандар К.В. Прямые иностранные инвестиции в странах BRIC. //Банковское дело, №02, 2008. С.46,47.

⁴⁰ Завадский М. Спад на фоне роста. //Эксперт, №3224, 2009. С. 34.

⁴¹ Ўша манба.

va yo'llar qurishga yo'naltirilmayotir. TMKda kelajakka bo'lgan tubdan ishonchsizligini susaytirib, likvidlik muammosini keltirib chiqardi.

Uchinchidan, 2009 yildan boshlab, Xitoyning davlat kompaniyalari xorijdan tabiiy boyliklarga boy konlarni faol sotib olmoqda, hukumatning xususiy biznesni tashqi bozorga chiqishga da'vat etishi tufayli birinchi marta kapital eksport qiladigan mamlakatga aylandi.

Bundan tashqari, Xitoy tashqi savdosining rivojlanishi bilan bog'liq muammolar ham xorijiy investisiyalarni jalb etish hajmining qisqarishiga ta'sir qilmoqda. Masalan, Xitoy Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lganidan (2001 y.) keyingi davr mobaynida mamlakat tashqi savdo hajmi eksport hisobiga besh baravarga oshgan va 2008 yilda 2561 mlrd. dollarni tashkil etgan (ijobiy qoldiq 250 mlrd. doll). Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida tashqi talabning qisqarishi Xitoy eksportining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xitoy tashqi savdo hajmini qisqartirish va eksportni kamaytirish maqsadida 2007 yildayoq "Korxonalarning daromad solig'i to'g'risidagi" Qonunni qabul qilgan. Ushbu qonun barcha mulk shaklidagi korxonalardan bir xil daromad solig'ini undirishni nazarda tutadi va ushbu holat xorijiy investisiyali korxonalar foydasining qisqarishiga olib keladi⁴².

Endi Xitoyning 2006-2020 yillarda iqtisodiy o'sishining asosiy omillariga e'tiborni qaratsak. Xitoyda turli davrlarda mamlakatning rivojlanishi to'g'risida birtalay bashoratlar ishlab chiqilgan. Bashorat bo'yicha, Xitoy YaIMsi 2000 yilda 1980 yilga nisbatan 3,5-4,2 marta oshishi kerak edi, ammo real o'sish 6,4 martani tashkil etdi⁴³. Keyingi 20 yil uchun (2001-2020 yillar) Xitoy o'zini zamonaviy xalqaro me'yorlarga mos keluvchi o'rta rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsadida YaIM ni 4 marta ko'payish vazifasini takrorlamoqchi⁴⁴.

⁴² Островский А.В. Подготовиться к мировому кризису – китайский рецепт. //ЭКО, №5, 2005. С.40,44.

⁴³ Мировая экономика: прогноз до 2020 года/под ред.А.А.Дынкина, Магистр, Москва, 2008, 312 бет.

⁴⁴ "Хитой иктисодиётининг ўсиши – ташқи дунё учун очикликни кенгайтириш шароитида иктисодий ўсиш доклади", Апрель, 2006 йил.

Ayrim kuzatuvchilar⁴⁵, 1978 yilda boshlangan bozor islohotlaridan boshlab, Xitoy iqtisodiyoti o'sishining o'rtacha yillik sur'ati 9,3%ni tashkil etganligini inobatga olib, 2030 yilda uning 7,2% darajasida bo'ladi degan xulosaga kelishmoqda. Bu esa Xitoy YaIMsi 2020 yilda 2000 yilga nisbatan 5 marta, 2030 yilda esa – 11 martaga ko'payadi, bu o'z navbatida Xitoyni "zamonaviy yangi industrial mamlakat"ga aylanishiga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi kunda Xitoy industrial kompleksining rivojlanish miqyosini quyidagi raqamlar orqali ko'rish mumkindir:

- Xitoyda 1 kunda 2,1 mlrd. yuanlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi;
- kuniga 2,3 mln.tonna ko'mir qazib olinadi;
- 1 kunda 360 tonna neft ishlab chiqariladi;
- kuniga 140 mln.tonna po'lat va 455 ming tonna sement ishlab chiqariladi.

Jadval 3.1.1.

**Xitoy sanoat sohasining o'sishiga alohida omillarning
qo'shgan hissasi ⁴⁶**

O'rtacha yillik o'sish, % da						
	1982- 1985yy.	1986- 1990yy.	1991- 1995yy.	1996- 2000yy.	2001- 2005 yy.	2006- 2010 yy.
Sanoat mahsulotlari	9,3	7,6	12,2	9,8	11,5	12,4
Kapital quyilmalarning quyilishi	9,2	11,4	14,9	11,8	12,1	13,9
Mehnat	4,8	3,4	2,7	3,6	3,9	4,2
Umuman o'sishning ekstensiv omillari	6,6	6,6	7,6	6,9	6,7	6,3
Iqtisodiy samaradorlikning kompleks indeksi	2,9	1,0	4,6	2,9	5,2	4,2

⁴⁵ В.Портяков. О перспективах развития Китая// "Проблемы Дальнего Востока", №5, 2005, <http://www.ifes-ras.ru/old/periodika/pdv/5-2005.htm>

⁴⁶ Манба: Го Кэо. Указ. соч. с.9.

Xitoyda oxirgi yillarda, ya'ni 2007 yilda sanoat ishlab chiqarishi har doimgidek 18% atrofida o'sdi. Sanoatni 1 yil ichidagi qo'shimcha qiymati 9,65 mlrd.yuanni tashkil etib, u 2006 yilga nisbatan 17,1% ga o'sdi.

Mamlakatda birlamchi energiyani ishlab chiqishning umumiy miqdori, ya'ni standart ko'mir ishlab chiqarish - 1,603 mlrd.tonnani tashkil etdi. Tosh ko'mir qazib olish esa, 1,943 mlrd.tonnadan iborat bo'lib, u 13% ga oshdi. Neft qazib olish 2006 yilda 178 mln. tonnani tashkil qildi.

Jadval 4.2.

Xitoy YaIM va YaIM ning aholi jon boshiga to'g'ri kelish dinamikasi

2005 y. narxlarida va SOQP (sotib olish qobiliyati pariteti)ga ko'ra.⁴⁷

yillar	YaIM mlrd. yuanda	YaIM ning aholi jon boshiga to'g'ri kelishi, yuan.da
1978	362,4	379
1985	896,4	853
1990	1854,79	1634
1995	5847,81	4854
2000	8946,8	7086
2003	11689,8	9073
2005	18230,1	13916
2007	24720,5	17038
2009	30062,7	23600
2010	33329,3	253846

Undan tashqari Xitoyda qayta ishlanmagan po'lat 2006 yilda 430 mln.tonnani tashkil etib, 2005 yildagiga qaraganda 100 mln.tonnaga ko'pdir. 2006 yilda mis ishlab chiqarish 5 mln.tonnadan oshib ketdi, uning yillik o'rtacha o'sishi 18,2 % ni tashkil etgandir.⁴⁸

Jadval 4.3.

XXR og'ir sanoatida ishlab chiqarilgan asosiy mahsulotlarning yillik ko'rsatkichlari⁴⁹ (1978-2010 yy.)

Mahsulotlar	o'lchov birligi	1978 y.	1990 y.	1997 y	2005 y	2010y.
-------------	-----------------	---------	---------	--------	--------	--------

⁴⁷ Мировая экономика: прогноз до 2020 г., под ред.А.А.Дынкина /ИМЭМО.М.:Магистр,2007.-429с.

⁴⁸ Хитой миллий статистика бюроси маълумотлари, 2007 .Пекин.

⁴⁹ Мировая экономика: прогноз до 2020 года.М., “Магистр”, 2007 ., 425 с.

Ko‘mir	mlrd.ton.	0,618	1,08	1,39	1,66	1,98
Neft	mln.t.	104,0	138,3	158	170	192
Elektroenergiya	mlrd.kvt.s.	256,6	621,2	1132	1910	2889
po‘lat	mln.t.	31,78	66,3	59,9	222,3	581,5
sement	mln.t.	65,2	209,7	380,1	862,0	1089,3
Yirik va o‘rta shaklli traktorlar	ming dona	113	319	1490	488	8075
Avtomobillar	ming dona	149	514	264	444	895
Rangli televizorlar	ming dona	3,8	10,386	22,165	65,4240	89,5430
Kimyoviy o‘g‘itlar	mln.tonn	8,6	18,7	28,5	42,0	75,9

Oxirgi yillarda Xitoy og‘ir sanoatidagi mashinasozlik tarmog‘ida tez rivojlanish tendensiyasi kuzatilmoqda. 2003 yilda ushbu tarmoqning umumiy daromadi 77 mlrd. yuanni tashkil etib, u 2002 yilga nisbatan 16,7% ga ko‘pdir. Hozirgi kunda og‘ir mexanik uskunalarning Xitoy bozorida “Volvo”, “BMV”, “Sani” gigant korxonalari ustuvorlik qilmoqda. Ekspertlar tomonidan olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra, suv xo‘jaligi sohasidagi, transport kommunikatsiyasi va shaharlar qurilishidagi yirik ob‘ektlarni amalga oshirish Xitoy og‘ir sanoatining keyingi barqaror rivojlanishi uchun zamin bo‘ladi. 2005 yilda o‘zi yuk tashuvchilarga, buldozerlarga, yuk ko‘taruvchi kranlarga bo‘lgan talab 160 mingtani tashkil etdi. Aytish lozimki, Xitoy og‘ir sanoati, uning yengil sanoatiga qaraganda tezroq rivojlanib, uning miqesli kundan-kunga kengaymoqda. U duneda po‘lat, ko‘mir, sement ishlab chiqarishda yirik ishlab chiqaruvchiga aylandi.

Taniqli nemis olimi Gofmanning nazariyasiga ko‘ra, agar mamlakat og‘ir sanoatining yalpi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmidagi salmog‘i 50% ni tashkil etsa, mamlakat o‘rtacha industriallashtirish bosqichiga yetganligini va ushbu salmoq 2/3 ga yetsa, mamlakatda industriallashtirish jarayoni asosan tugatilganligini anglatadi. Gofman koeffisienti bo‘yicha, yengil va og‘ir sanoatdagi foydalanish nisbati 0,5 ga teng bo‘lsa, koeffisient -1 ga teng bo‘ladi, agar tarmoq salmog‘i 2/3 ga teng bo‘lsa – koeffisient – 2 ga teng bo‘ladi va 100% ni qoplaganda – koeffisient 3 ga teng bo‘ladi.

1975 yillarda Yaponiyada Gofman koeffisienti 3 ga teng bo'lgan, 1985 yillarda esa "Osiyodagi kichik to'rtlik" davlatlarida ushbu koeffisient 2 ga teng bo'lgan va bu davlatlarda industriallashtirish jarayoni tugatilgan. Xitoyda esa, ushbu industriallashtirish jarayoni 2010 yilda tugatilishi ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda Xitoyda Gofman koeffisienti 1,25% ga yetgan bo'lib industriallashtirish jarayoni o'zining o'rta fazasiga yetdi.

3.2. Xitoy industriallashtirish jarayoni tajribasidan O'zbekiston uchun foydalanish imkoniyatlari

Xitoy industriallashtirish jarayoni yutuqlaridan o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari jumladan, O'zbekiston uchun tajriba sifatida foydalanish imkoniyatlarini tahlil etadigan bo'lsak, xitoy iqtisodiyotini modernizatsiyalash va undagi industriallashtirish jarayonini amalga oshirish tajribasining muhim jihatlariga ahamiyat berish lozim deb o'ylaymiz. Ya'ni, Xitoy iqtisodiyotini industriallashtirish va modernizatsiyalash quyidagi tamoyillarga asoslandi⁵⁰:

1. Davlat tasarrufidagi korxonalarni saqlab qolish va yuqori texnologik taraqqiyotni belgilovchi yangi korxonalarni tashkil etish tashabbusini qo'llab-quvvatlash. Masalan, Xitoyda 1997-2010 yillarda an'anaviy tarmoqlar hisoblangan neft qazib chiqarish 28,2%, po'lat eritish 3,4 marta o'sgan holda, ilg'or, fan sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlar bo'lmish avtomobillar - 9,1 marta, kompyuterlar va orgtexnika – 13,8 marta, mobil telefonlar ishlab chiqarish 23 martaga ko'paydi.

2. Xitoy iqtisodiyotini industriallashtirish va modernizatsiyalash to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar va yuqori texnologiyani jalb etishga asoslangan. 2011 yilga kelib mamlakatda jamlangan (Gonkongni qo'shib hisoblaganda) TTXI hajmi 1,264 trln. dollarga yetdi. Mamlakatda yaratilgan 132 ta yirik sanoat kompaniyalari ishlab chiqarish quvvatlari jahondagi 200 ta eng katta transmilliy sanoat kompaniyalari tarkibiga kirib, ularning hissasiga 2007 yilda sanoat ishlab chiqarishning 30,9% i to'g'ri keldi.

⁵⁰ Инозметцев В. Учиться у Китая // Ведомости, 19.12.2009.: Факты и цифры в 2010 г. Стат.ежегодник Китая.

3. Xitoyliklar G'arb texnologiyasini o'rganib, mamlakatda innovasion nusxa ko'chirishning strategiyasini amalga oshirdilar. Mamlakatda elektrotexnika mahsulotlari, uskunalari va avtomobillar ishlab chiqaruvchi G'arb korxonalari paydo bo'lganidan 3-5 yil o'tgandan so'ng xuddi shunday tovarlar ishlab chiqaruvchi xitoy korxonalari vujudga keldi. Masalan, 2000-2002 yillarda Xitoyda G'arb mamlakatlarining avtomobil yig'uvchi zavodlari yiliga 1,7 mln. dona mashina yig'ib chiqargan bo'lsa, 2008 yilda 13 ta shunday zavodlar 2,1 mln. dona avtomashina ishlab chiqargan holda Xitoy zavodlari 7,3 mln. dona avtomashina ishlab chiqardilar.


4. Mamlakatda o'z tovarlarini jahon bozoriga olib chiqishni qo'llab-quvvatlash orqali modernizatsiya samaradorligi oshirildi. Oxirgi 10 yil mobaynida Xitoyda sanoat mahsulotlari eksporti 7,4 marta o'sdi. Ushbu maqsadga erishish uchun hamma narsa, shu jumladan, ichki va tashqi siyosat mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotni eksportga yo'naltirishni qo'llab-quvvatlashga qaratildi. Eksportyorlarni kreditlash mexanizmi yaratildi.

5. 1990 yillarning o'rtalaridan boshlab Xitoydagi modernizatsiyalash loyihalarining yetakchi elementi infratuzilmani rivojlantirishdan iborat bo'ldi. 1995-2008 yillarda Xitoydagi avtomobil yo'llari uzunligi 3,1 marta, temir yo'llar uzunligi 40% ga, elektroenergiya ishlab chiqarish miqdori 2,8 marta ko'paydi. So'nggi 5 yilda 3,1 mlrd. kv. metr uy-joy qurildi. Mamlakatga jahondagi 50 ta eng yirik dengiz portining 17 tasi, 50 ta eng yirik aeroportlarning 6 tasi to'g'ri keladi hamda dunyo savdo flotining 11% i tegishlidir.

6. Davlat iqtisodiyot bilan birga institut sifatida ham o'zini modernizatsiyalashtirdi. Boshqaruv apparatida ishlovchilar malakasi, kasbiy mahorati tubdan yangilandi, korrupsiya va poraxo'rlikda ayblangan ko'plab davlat xizmatchilari jazolandi va iste'foga chiqarildi.

Xitoydagi iqtisodiy mo'jiza sababi esa iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yillarida investisiya normasi va eksportning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining ortishi, kuchli proteksionizm siyosatini amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirishda investisiyalarni jalb etish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishga aylandi (3.2.1.-rasm).



Yuqorida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda investisiyalarni jalb etishda avvalo ichki manbalarni safarbar etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu yangi ishlab chiqarishni tashkil etish yoki mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirishda investorlarning o'z moliyaviy resurslari – korxona foydasi, amortizatsiya ajratmalari, pul jamg'armalari va boshqalardan kengroq foydalanish zarurligini anglatadi. Chunki, ichki manbalarning to'liq safarbar etilishi, bir tomondan, mavjud iqtisodiy resurslardan tejamli va oqilona foydalanishni ta'minlasa, boshqa tomondan, investisiyalarning samaradorligini oshiradi.

Mamlakat miqyosidagi investisiya faoliyatini samarali amalga oshirish maqsadida **investisiya dasturi** ishlab chiqildi. Investisiya dasturlarida muayyan davrda amalga oshirilishi mo'ljallangan loyihalar, ularning bajarilish bosqichlari va sarflanishi ko'zda tutilgan mablag'lar qiymati hududlar va tarmoqlar bo'yicha aks ettirildi. Investisiya dasturlari uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lib, unda har bir yil uchun mo'ljallangan chora-tadbirlar alohida ifodalangandir.

Shuningdek, mamlakatimizda texnik modernizatsiyalash bo'yicha **tarmoq dasturlari** ham ishlab chiqilib, ularda iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarishning zamonaviy andozalariga o'tish, tejamkor va samarali texnologiyalarni qo'llash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Jumladan, mamlakatimizda 2009-2014 yillarga mo'ljallangan ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirish choralari dasturi umumiy qiymati 42,51 mlrd. doll.dan iborat 852 ta investisiya loyihasini o'z ichiga oladi. 2009 yilda tasdiqlangan ayrim tarmoq dasturlari to'g'risidagi ma'lumotni quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin (3.2.1.-jadval).

**Modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirishning
tasdiqlangan tarmoq dasturlari⁵¹**

Tarmoqlar	Loyihalar soni, dona	Loyihalar qiymati, mln. doll.
Paxta tozalash sanoati	41	129,7
To'qimachilik sanoati	65	477,7
Yog'-moy sanoati	63	31,7
Kimyo sanoati	30	291,7
Avtomobil sanoati	26	255,1
Qurilish materiallari sanoati	36	343,1
«O'zmetkombinat» aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasi	9	49,0
Farmasevtika tarmog'i	45	26,5
Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati	26	892,1
Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati	13	405,3
Qishloq xo'jalik mashinasozligi	13	28,0
Temir yo'l tarmog'i	18	1734,2

Respublikamizda 2009 yil mobaynida qayd etib o'tilgan investisiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo'yicha tarmoq dasturlari doirasida 690 ta investisiya

⁵¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг «Мамлакатимизни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш – устувор мақсадимиздир» ҳамда «Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир» номли маърузаларини ўрганиш бўйича Ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент: Иқтисодиёт. - 2010. 76-бет.

loyihasi amalga oshirilib, ularning 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlandi. Buning natijasida 22 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti, jumladan, neft-gaz, kimyo, metallurgiya sanoatida 8 ta, mashinasozlik sanoatida 9 ta va qurilish industriyasida 5 ta ob'ekt foydalanishga topshirildi. Yil davomida nihoyasiga yetkazilgan bir qator strategik loyihalarni quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin (3.2.2.-jadval).


3.2.2-jadval.

2009 yil davomida nihoyasiga yetkazilgan strategik loyihalar

Loyiha ob'ekti	Loyihaning qisqacha mazmuni
«Farg'onaazot» korxonasi	Ammiak agregatlarini rekonstruksiya qilish
«Maksam-Chirchiq» korxonasi	
Namangan shahridagi yengil avtomobillar uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarish zavodi	Engil avtomobillar uchun fara va chiroqlar ishlab chiqarish
Buxoro shahridagi «DEU tekstil» to'qimachilik kompleksi	Paxta tolasini qayta ishlash asosida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
«Gazli» qo'shimcha kompressor stansiyasi	Gaz mahsulotlarini iste'molga tayyorlash va ishlov berish jarayonlarini ta'minlash
«Qo'ng'iroq» kompressor stansiyasi	
Turkmaniston-O'zbekiston-Qozog'iston-Xitoy transmilliy magistral gaz quvuri	Turkmanistondan O'zbekiston hududi orqali Xitoyga o'tadigan gaz quvurini tortish ishlari
«Yangi Angren-O'zbekiston» LEP-500 elektr uzatish liniyasi	Mamlakat hududlarini elektr energiyasi bilan ta'minlash
«G'uzor-Surxon» yuqori voltli elektr uzatish liniyasi	
«Ohangaron-Pungon» magistral gaz quvuri	Mamlakat hududlarini tabiiy gaz bilan ta'minlash

Bundan tashqari, hududlarimizda, avvalo, qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa tarmoqlarda kichik biznes sohasida faoliyat olib boradigan 480 dan ortiq yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etildi. Iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va xalqimiz farovonligini oshirishda mamlakatimiz hududlarida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda olib borilgan izchil tarkibiy siyosat natijasida iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida sifat siljishlari ro'y berdi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarishining YaIMdagi ulushi 2000 yilda 14 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ulush 24 foizga yetdi (3.2.2-rasm).



Shuningdek, transport va aloqa tarmoqlarining YaIMdagi ulushi shu davrda 8 foizdan 12 foizgacha ko'tarildi. Sanoat, transport va aloqa tarmoqlarining YaIMdagi ulushi ortishi soliq yukining kamaytirilishi, bu tarmoqlarga investisiyalar ustuvor tarzda jalb qilinishi, yirik investisiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasida ro'y berdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmlari shu yillarda muttasil yuqori sur'atlarda o'sdi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'siriga qaramasdan tarmoqda o'sish sur'ati 2008 yilda 12,7 foizni, 2009 yilda esa 9 foizni tashkil etdi (3.2.3-rasm).



3.2.3-rasm.

Taqqoslash uchun qayd etish mumkinki, 2009 yilda sanoat ishlab chiqarishi hajmi oldingi yilga nisbatan Qozog‘iston Respublikasida atigi 1,7 foizga o‘sgan bo‘lsa, Rossiya Federatsiyasida 10,8 foizga, Ukrainada 21,9 foizga qisqardi.

2009 yilda yuqori o‘shish sur‘atlari mashinasozlik va metallni qayta ishlash (117,4%), kimyo va neft-kimyo, yoqilg‘i (110,3%), qurilish materiallari (108,7%), qora metallurgiya (108,4%) va oziq-ovqat (108,2%) sanoatida qayd etildi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘zbekiston bugungi kunda Xitoy tajribasini chuqur o‘rgangan holda va o‘z rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, eksport hajmini oshirish, uning tarkibini diversifikatsiyalash, umuman tashqi savdo aylanmasini diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishida sifat o‘zgarishlariga erishish, uning raqobatbardoshligini oshirish orqali iqtisodiy yuksalish va aholi turmush farovonligini yanada ko‘tarish maqsadlariga erishish yo‘lidan bormoqda.

Xulosa

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish sharoitida O'zbekiston uchun Xitoyning iqtisodiy muvafaqqiyatlarga erishishida muhim rol o'ynagan industriallashtirish tajribasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Xitoyda industriallashtirish jarayonini tahlil etish orqali, umumiy ravishda quyidagi xulosalar qilish mumkin.

Birinchidan, davlat sanoatlashtirish siyosati – bu ishlab chiqarishning o'sishiga, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqish va joriy etishga, iqtisodiyotning tarmoq tarkibini yaxshilashga va tayyor mahsulot eksportini rivojlantirishga qaratilgan davlatning uzoq muddatli chora-tadbirlar majmuidir. Davlat sanoatlashtirish siyosati iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Ikkinchidan, Xitoy iqtisodiyotining yuqori sur'atlar bilan o'sishida samarali industriallashtirish siyosati bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bilan ajralib turadi. Ushbu siyosat iqtisodiy liberallashtirish, xo'jalikni boshqarishda bozor tamoyillariga bosqichma-bosqich o'tishga yo'naltirilgandir.

Uchinchidan, Xitoyda industrallashtirish natijasida mamlakat yalpi ichki mahsulotining tarkibida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi va qishloq xo'jaligining ulushi 28,0%dan 2010 yilga kelib 17,1%gacha qisqardi, sanoat, qurilish va xizmatlar ulushi esa 62%dan 88,7%ga oshdi. Xitoy sanoat islohotlari natijasida asosiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi keskin ortdi. Jumladan, 1949 yilda prokat va neft ishlab chiqarish 0,1 mln. tonnadan 2010 yilga kelib mos ravishda 592,9 va 191,7 mln. tonnagacha organ bo'lsa, avtomobillar ishlab chiqarish hajmi 1978 yilgi 0,2 mln. donadan 2010 yilda 9,4 mln. donaga ko'paydi

To'rtinchidan, Xitoy sanoat islohotlari quyidagi omillarga tayanadi:

- davlatning iqtisodiyotdagi roli;
- yuqori jamg'arish normasining mavjudligi. Xitoyda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jamg'arish normasi YaIMga nisbatan o'rtacha 40 % ni tashkil etadi;

- eksport hududlarning barpo etilishi. Ushbu hududlar katta hajmdagi kapital qo'yilmalarni talab etadi va ushbu qo'yilmalar bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. XX asr 90-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab eksport ishlab chiqarish hududlariga yo'naltirilgan davlat va xususiy investisiyalar ulushi jami investisiyalar hajmining yarmidan oshib ketgan. Uzoq yillar mobaynida jami xorijiy investisiyalarning 70% dan ortiq qismi ushbu hududlarga yo'naltirilgan. 2007 yilga kelib EIZning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 59,5% ni tashkil etdi:

- xususiy sektorning rivojlanishi. Hozirda Xitoyda zamonaviy aralash iqtisodiy tizimning hamma elementlari mavjud. Mamlakat JST ga a'zo bo'lganidan so'ng xususiy sektor uchun ilgari yopiq hisoblangan iqtisodiyot sohalari, jumladan, elektroenergetika, kommunal xizmat, neft sohasi, temir yo'l orqali tashish hamda fuqaro aviatsiyasida imkoniyatlar birmuncha kengaytirildi. Bu esa industriallashtirish jarayonida raqobat muhitining shakllanishiga olib keladi.

Xitoy industriallashtirish jarayonining zamonaviy bosqichi iqtisodiyotni modernizatsiyalash hisoblanadi va u quyidagi tamoyillarga asoslandi:

- davlat tasarrufidagi korxonalarni saqlab qolish va yuqori texnologik taraqqiyotni belgilovchi yangi korxonalarni tashkil etish tashabbusini qo'llab-quvvatlash;

- Xitoy iqtisodiyotini modernizatsiyalash to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar va yuqori texnologiyani jalb etishga asoslanganligi;

- Xitoyliklar tomonidan G'arb texnologiyasini o'rganib, mamlakatda innovasion nusxa ko'chirishning strategiyasining amalga oshirilishi;

- mamlakatda o'z tovarlarini jahon bozoriga olib chiqishni qo'llab-quvvatlash orqali modernizatsiya samaradorligining oshirilishi;

- Xitoydagi modernizatsiyalash loyihalarining yetakchi elementi infratuzilmani rivojlantirishdan iboratligi.

Xitoydagi iqtisodiy mo'jiza sababi esa iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yillarida investitsiya normasi va eksportning yalpi ichki mahsulotdagi ulushining ortishi, kuchli proteksionizm siyosatini amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar:

1.1. Указ Президента Республики Узбекистан « О создании свободной индустриально-экономической зоны в Навоийской области». УП-4059,2 декабрь 2008г.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida". 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.

1.3. Постановление Президента Республики Узбекистан от 16.05.2006 г. №ПП-350 «О мерах по организации деятельности фонда реконструкции и развития Республики Узбекистан».

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 2009 yil 28 yanvar, PQ-1050-son.

1.5. Постановление Президента Республики Узбекистан от 12.03.2009 г. № пп-1072 «Программе мер по реализации важнейших проектов по модернизации, техническому и технологическому перевооружению производства на 2009-2014 годы»

1.6. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию и модернизации предприятий текстильной промышленности и расширению производства отечественных непродовольственных потребительских товаров на 2009-2011 годы» от 20.08.2009 г. № 236.

1.7. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 29.01.2009 г. №26 «О дополнительных мерах по повышению конкурентоспособности продукции отечественных производителей».

1.8. Постановление Президента Республики Узбекистан от 15 июля 2008г. №916 « О дополнительных мерах по стимулированию внедрения инновационных проектов и технологий в производства».

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

2.1. Karimov. I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T.: O‘zbekiston, 2009. 56b.

2.2. Karimov. I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish-davr talabi. Xalq so‘zi, 2009 yil 14 fevral.

2.6. Karimov. I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.- Toshkent: O‘zbekiston, 2010.-80 b.

3. Maxsus adabiyotlar:

3.1. Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации : Учебник / О.Т.Богомолов. –М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2007. -359 с.

3.2.В.Гельбарс, В.Кузнецова. КНР. МЭиМО, №8, 2001.

3.3.В.Гельбарс, В.Кузнецова. КНР: год суровых испытаний. //МЭиМО, №8, 2000.

3.4.В.Гельбарс. Тридцатилетие эпохи “реформ и открытости” в Китае. //Мировая экономика и международные отношения, №6, 2009. с. 73-83.

3.5.В.Михеев. Китай: новые компоненты стратегии развития. //МЭиМО, №7, 2004.

3.6.Гельбарс В. Цена экономических успехов Китая. //Мировая экономика и международные отношения, №9, 2007. С.29.

3.7.Завадский М. Спад на фоне роста. //Эксперт, №32, 2009. С. 34.

3.8.Инозметцев В. Учиться у Китая // Ведомости, 19.12.2009.

3.9.Лабинская И. Китай: универсальная модель модернизации? //Мировая экономика и международные отношения, №7, 2009. С. 46.

- 3.10. Мельянцев В. Экономический рост Китая и Индии: динамика, пропорции и последствия. //МЭиМО, №9, 2007. с. 18-25.
- 3.11. Ни Сяолин. Расширять внутреннее потребление! //Китай, №9 (47), 2009. С.32.
- 3.12. Островский А.В. Подготовиться к мировому кризису – китайский рецепт. //ЭКО, №5, 2005. С.38.
- 3.13. Потапов М. Вступление КНР в ВТО: условия присоединения и последствия для китайской экономики// Внешнеэкономическая модель развития стран Восточной Азии. -М.: Международные отношения, 2004.
- 3.14. Цветков. Куда Китай путь держит. //МЭиМО, №2, 2004.
- 3.15. Швандар К.В. Прямые иностранные инвестиции в странах BRIC. //Банковское дело, №02, 2008. С.46,47.
- 3.16. Энрю Берг и Энн Кригер. Что будет означать вступление в члены ВТО для Китая и его торговых партнеров? //Финансы и развитие, №3, випуск 39, 2002. с. 10.
- 3.17. Пять лет членства в ВТО: пять важных результатов/Жэньминь жибао, 11.12.2006. <http://www.china.org.cn/russian/31516.htm>
- 3.18. Кэ Биншэн. Вступление Китая в ВТО: последствия и перспективы для сельского хозяйства. <http://www.rcrc.org.cn/RCRE/article/2003/11-04-14-1.htm>.
- 3.19. Китай: секреты восходящего мирового лидера (часть 2). Александр В. Смирнов, 14.05.09, <http://www.prostobankir.com.ua/>
- 3.20. Бай Цзиньфуй. Китайская экономика в оценке мирового сообщества. Издательский центр при Комитете по контролю за государственными фондами, февраль, 2005.
- 3.21. Вэнь Цзябао. Доклад о работе правительства. Хачитан 5 марта 2006 г. На 4-й сессии ВСНП 10 –го созыва. Пекин, 2006. 44-45 с.
- 3.22. Мировая экономика: прогноз до 2020 г., под ред. А.А. Дынкина, М., "Магистр", 2007., 429 с.
- 3.23. Экономика Китая вступает в XXI век. М.: 2004, 35-30 с.

3.24. Экономика Китая. Ван Мэнкуй и др. Межконтинентальное изд-во Китая, февраль, 2005.

3.25. Кэ Юнь. Наука и техника Китая. Пекин., 2005 .

3.26. Китайская Народная Республика: политика, экономика, культура, Под ред. М.Л.Титоренко, 2007, Москва, Русская панорама, 2008 г. 407 с.

4. Dissertatsiyalar va dissertatsiya avtoreferatlari

4.1. Ло Цин Шань. Предпосылки и перспективы усиления регионального сотрудничества и производственно-экономических связей Китая с Узбекистаном. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Т.: НУУ им. М. Улугбека, 2008. С. 26.

4.2. Муратова Г.К. Узбекистан в региональных экономических интеграционных процессах. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Т.: УМЭД, 2004. С. 25.

4.3. Оленицкая Л.Л. Конкурентоспособные стратегии экономического развития новых индустриальных стран Азии и возможности их адаптации к условиям Узбекистана. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Т.: ИЭ АН РУз, 2006. С. 26.

4.14. Хакимов Ф.Х. Экономический механизм повышения экспортного потенциала промышленности Узбекистана. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Т.: ИЭ АН РУз, 2004. С. 25.

5. Ingliz tilidagi adabiyotlar

5.1. The Global Competitiveness Report 2006-2007

5.2. International Monetary Fund. : International Financial Statistics. 2006. P262-943

5.3. China Perspectives, 1996, № 3, p.20-21.

5.4. Economic and Social Survey of Asia and the Pacific.-New York, 2004, 299 p.

5.5. UNCTAD. Handbook of Statistics.- N.Y. and Geneva. 2004.-445 p.

- 5.6. Zhao Simon X.B. Zhang L. Economic growth and income inequality in Hong Kong trends and explanations China.2005 3.№1,p.74-103
- 5.7.Global Financial Stability Report.IMF. April, 2006. P.95/
- 5.8.WTO. Annual Report. 2005. P.58.
- 5.9. Key Indicators of Developing Asian and Pacific Countries, Manila ADB, 2008, P. 10.
- 5.10.UNCTAD. World Investment Report. 2006. P.9-10/
- 5.11.Budget of the U.S. Government, F.Y. 2006. Wash. 2005.p.14.
- 5.12.The World Bank. World Development Report: attacking poverty. Washington, D.C.,2000/2001-335p.
- 5.13 Trade and development Report, 2008, UNCTAD, New York and Geneva, 2008, p, 48.
- 5.14..UNCTAD.Yandbook of Statistics.-N.Y. and Geneva, 2004.- 446p.
- 5.15.UNCTAD. Trade and Development Report: Policy Coherence, Development Strategies and Intergration into The World Economy.-N.Y. and Geneva, 2004.- 159p.

6.Statistik materiallar

- 6.1.Ўзбекистон Республикасининг йиллик статистик туплами 2000-2008. Т.: УзР давлат статистика кумитаси, 2001-2010 йй.
- 6.2.WTO Annual Report. International Trade Statistics. WTO 2000-2007гг.
- 6.3.World Investment Report. UNCTAD. New York and Geneva. 2005.
- 6.4.World Development Report. The World Bank. Washington. 2007.
- 6.5. Handbook of International Trade and Statistics. UNCTAD. New York and Geneva. 2007.

7. Internet resurslar

- 7.1. www.mineconomy.uz Министерство экономики
- 7.2.www.mf.uz Министерство финансов
- 7.3.www.mfer.uz Министерство внешних экономических связей, инвестиций и торговли

- 7.4. www.stat.uz Государственный комитет по статистике
- 7.5. www.gki.uz Государственный комитет по управлению государственным имуществом.
- 7.6. www.statistics.uz База данных статистической информации по Узбекистану.
- 7.7. www.cer.uz Центр экономических исследований.
- 7.8. [http:// www.itds.treas.gov/nafta.html](http://www.itds.treas.gov/nafta.html)
- 7.9. www.oecd.org
- 7.10. [http:// www.agoa.gov/indeks.html](http://www.agoa.gov/indeks.html)
- 7.11 [http:// www.ustr.gov/ Trade Agreements/ indeks.html](http://www.ustr.gov/Trade%20Agreements/indeks.html)
- 7.12.[http:// www.irex.ru/press](http://www.irex.ru/press)
- 7.13.[http:// www. Economy.gov.ru/](http://www.Economy.gov.ru/)
- 7.14.[http:// www.centrasia.ru/](http://www.centrasia.ru/)
- 7.15.[http:// aincientchina.narod.ru/sin2.htm](http://aincientchina.narod.ru/sin2.htm)
- 7.16.www.worldbank.org/reserch/growth/wupdate.htm
- 7.17[http :// www . oecd . org / dataoecd /15/2/43319682. pdf](http://www.oecd.org/dataoecd/15/2/43319682.pdf)
- 7.18http://siteresources.worldbank.org/INTRANETTRADE/Resources/239054-1126812419270/Trade_Note_37.pdf.
- 7.19. <http://russian.china.org.cn>.
- 7.20.<http://www.imf.org/external/russian/pubs/ft/weo/2008/update/03/pdf/1108r.pdf>,
- 7.21. [http:// www.mag.doc.gov/atpa/webmain/htm](http://www.mag.doc.gov/atpa/webmain/htm)
- 7.22. [http:// www.weforum.org/](http://www.weforum.org/)
- 7.23. dtheis@worldbank.org
- 7.29. [http:// www.wto.orghttp://www.russian.xinhuanet.com/russian/2009-01/15/content_800925.htm](http://www.wto.orghttp://www.russian.xinhuanet.com/russian/2009-01/15/content_800925.htm)
- 7.30.<http://russian.china.org.cn/business/txt/200905/08/content17742902.htm>
- 7.31.www.chinadaily.com